Kuch – bilim va tafakkurda

# Ma'rifat

Ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy nashr

Xalq ziyolilari gazetasi // 1931-yildan chiqa boshlagan // e-mail: info@marifat.uz // 2026-yil 12-avgust chorshanba №32(9617)

AZIMJON HUSANOV:

## "DUNYONING ENG KUCHLI MUTAXASSISLARI BILAN TENGMA-TENG BELLASHA OLADIGAN KADRLAR TAYYORLASHNI MAQSAD QILGANMIZ!"



– Qayerdaki inson o'z mehnati bilan jamiyat uchun foydali ekanini his qilsa, o'sha yerda rivojlanish, tashabbus va bunyodkorlik muhiti shakllanadi. "Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" tanlovi aynan mana shu maqsadga xizmat qilmoqda, yoshlarni o'z ustida ishlash, kasbiy mahoratini oshirish, yangi marralar sari intilishga undayapti. Tanlovning asosiy qadriyati sifatida ham insonning yoshi yoki kelib chiqishi emas, balki uning bilimi, mehnati va mahorati asosiy mezon sifatida baholandi.

**Azimjon HUSANOV,**
**Kasbiy ta'lim agentligi direktori**

Darhaqiqat, malakali inson – har qanday taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuch. Qaysi soha rivoji haqida so'z ochmaylik, uning ortida o'z ishining sir-asrorini puxta egallagan, kasbi allaqachon hayoti mazmuniga aylangan insonlar mehnati yotadi. Bugun ana shu mahoratni qadrlash, yoshlarni hunarga qiziqtirish va ularga o'z qobiliyatini namoyon etish uchun maydon yaratish har qachongidan-da muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xuddi shu ma'noda Kasbiy ta'lim agentligi tomonidan tashkil etilgan "Yangi O'zbekiston bunyodkorlari" kasbiy mahorat milliy tanlovining Respublika bosqichi nihoyasiga yetdi. 8-avgust kuni Toshkent shahridagi "Humo Arena" sport majmuasida mazkur tanlovning g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev g'oliblarga tabrik yo'llarkan, jarayonni zamonning o'tkir talabi deya alohida ta'kidladi: *"Vatanimizning bugungi shiddatli taraqqiyoti, hayotimizga kirib kelayotgan raqamli iqtisodiyot, zamonaviy korxonalar o'z ishining ustasi bo'lgan, raqobatbardosh kasb egalarini tayyorlash va rag'batlantirishni talab etmoqda. Biz ana shu o'tkir zaruratni hisobga olib hamda azaldan ilm va hunar egalarini e'zozlab keladigan xalqimizning ezgu an'analarini rivojlantirish maqsadida mazkur milliy tanlovni tashkil etdik".*

**(Davomi 5-betda.)**



## HOKIM BOBO, BIZNIKIGA QACHON KELASIZ?!

Ta'lim muassasalarida

# MAKTAB MASLAHATCHISI – O‘QUVCHILARNI MAQSADIGA ELTUVCHI KO‘MAKCHI

**Prezidentimizning 2025-yil 8-sentabrdagi “Maktabdan tashqari ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq umumiy o‘rta ta'lim maktablarida maktab maslahatchisi lavozimi joriy qilindi. Mazkur qaror asosida respublikaning barcha tuman va shaharlaridagi maktablarda bosqichma-bosqich maktab maslahatchilari faoliyat boshladi.**

Joriy yilning mart oyidan boshlab maktab maslahatchilari faoliyatini boshladi.

Maktab maslahatchisining asosiy vazifalari qatoriga “Prezident iqtidorli farzandlari” milliy dasturini targ‘ib etish, tarmoq to‘garaklari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish, o‘quvchilarni tarixiy obidalar va milliy qadriyatlar bilan yaqindan tanishtirish, “O‘quvchilar kengashi” faoliyatini rivojlantirish, shuningdek, madaniyat, san'at, kitobxonlik, sport va ekologiya yo‘nalishlaridagi loyihalarni muvofiqlashtirish hamda o‘quvchilarning ijtimoiy portfoliolarini shakllantirish kiradi.

Men faoliyat yuritayotgan maktabda 867 nafar o‘quvchi tahsil oladi. Faoliyatimni aniq reja asosida tashkil etish maqsadida haftalik va oylik ish rejalarini ishlab chiqdim. Dastlab 7–11-sinf o‘quvchilari o‘rtasida ularning qiziqishlari, kasbiy yo‘nalishlari va mavjud muammolarini aniqlash maqsadida so‘rovnomalar o‘tkazdim. Olingan natijalar tahlil qilinib, iqtidorli o‘quvchilar bilan malakali pedagoglar, o‘zlashtirishi past bo‘lgan o‘quvchilar bilan esa ota-onalar va fan o‘qituvchilari hamkorligida individual ish rejalari belgilandi.

So‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘quvchilarning aksariyati kimyo, biologiya, fizika, ingliz tili, tarix, matematika va informatika fanlariga qiziqish bildirgan. Qolganlari esa sport va san'at yo‘nalishidagi to‘garaklar tashkil etilishini taklif qildi.

Shundan kelib chiqib, “Kelajak” markazining tarmoq to‘garaklarini yo‘lga qo‘yishda ota-onalar va o‘quvchilarning ehtiyoj hamda istaklari inobatga olindi. Ota-onalarga mazkur to‘garaklar davlat nazorati ostida tashkil etilishi, ularga malakali pedagoglar jalb qilinishi, ta'lim sifati kafolatlanishi va oilalar uchun iqtisodiy jihatdan ham qulay ekani tushuntirildi. Natijada ushbu to‘garaklarga bo‘lgan qiziqish yanada ortdi.

Bugungi kunda maktabimizda milliy sertifikatning A+ darajasiga ega fizika fani o‘qituvchisi Yaxshiboy Eraliyev hamda oliy toifali, B2 darajadagi sertifikatga ega ingliz tili o‘qituvchisi Nurbek Baratov tomonidan tarmoq to‘garaklari faoliyat yuritmoqda. Yaqinda milliy sertifikatning A+ darajasiga ega, oliy toifali tarix fani o‘qituvchisi Alimqul Zulponov ham tarix yo‘nalishidagi to‘garakni tashkil etish uchun tavsiya qilindi.

Bugungi o‘quvchi o‘z kelajagini belgilashda eng ishonchli o‘qituvchilar ko‘magi va bilimiga suyanadi. Shunday ekan tarmoq to‘garak rahbarlari ham eng munosib o‘qituvchilar bo‘lishi kerak. 25–30 kilometr masofaga borib ota-onasi va ustozlarini xavotirga solishning endi hojati yo‘q. Faqat bu borada maktab maslahatchisi o‘z vazifasiga sidqidildan yondashsa, o‘quvchilar kelajagini ko‘ra bilib, ularga qanot bag‘ishlab to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatsa nur ustiga nur bo‘ladi. Tanganing ikkinchi tomoni ham xursand qiladigan darajada. Nega deysizmi? Tarmoq to‘garaklari uchun to‘langan mablag‘larning 40 foizi maktabning maxsus hisobraqamiga yo‘naltiriladi. Ushbu mablag‘lar ta'lim muassasasining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zarur jihozlar xarid qilish va o‘quvchilar uchun yanada qulay sharoit yaratishga xizmat qiladi.

Maktab maslahatchisi o‘z vazifasiga mas'uliyat bilan yondashib, har bir o‘quvchining qiziqishi va salohiyatini to‘g‘ri baholay olsa, uning kelajakdagi kasbiy yo‘lini belgilashda ishonchli yo‘lboshchiga aylanishi shubhasiz.

Ta'kidlash joizki, maktab maslahatchilari nafaqat o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, balki ularning qobiliyatini yuzaga chiqarish, kasbiy yo‘nalishini to‘g‘ri belgilash va kelajakdagi muvaffaqiyatiga mustahkam poydevor yaratishda muhim bo‘g‘in bo‘lib xizmat qiladi.

**G‘ayratjon QORABEKOV,**
**Bulung‘ur tumanidagi**
**11-maktab maslahatchisi**

Xalqaro tajriba

**Namangan viloyati delegatsiyasi tarkibida Yaponiyaga amalga oshirilgan xizmat safarimiz unutilmas safarlardan biri bo‘ldi.**

# KUNCHIQAR MAMLAKATI TAJRIBASIDAN SABOQLARIMIZ



Mazkur xizmat safari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi “Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2025-yil 28-apreldagi “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni, shuningdek, Namangan viloyati hokimining “Yaponiya ta'lim tizimiga xos ayrim ilg‘or tajribalarni umumta'lim maktablarida joriy etish bo‘yicha tajriba-sinov loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida”gi qarori hamda Namangan davlat pedagogika institutining 2026-yil uchun tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”da belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida amalga oshirildi.

Yaponiya ko‘pchilik tasavvurida zamonaviy texnologiyalar, yuqori tezlikda harakatlanuvchi poyezdlar, robototexnika, dunyoga mashhur kompaniyalar va iqtisodiy mo‘jizalar yurti sifatida gavdalanadi. Ammo mamlakatning haqiqiy qudrati beton va po‘latdan qad rostlagan osmono‘par binolar yoki insonni hayratga soluvchi ixtirolardan ko‘ra, insonga bo‘lgan yuksak e'tibor, uning tafakkurini rivojlantirish va barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan puxta tizimida ekanini anglash qiyin emas.

Shuningdek, kunchiqar mamlakatining bugungi taraqqiyoti intizom, mehnatsevarlik, mas'uliyat, vaqtni qadrlash va ilm-fanga hurmat kabi qadriyatlar asosida bunyod etilgan. Bu yurtda taraqqiyot insondan boshlanadi. Mamlakatda har bir fuqaro o‘z ishini vijdonan bajarishni burch deb biladi, har bir bola esa ertangi kun bunyodkori sifatida tarbiyalanadi.

Safar davomida Yaponiyadgi Takenodai Bunka Kindergarten, Funabashi Special Needs School, Ichikawa Junior and Senior High School, Saitama University Kindergarten hamda Saitama University Elementary School faoliyati bilan yaqindan tanishdik. Shuningdek, Meiji Gakuin University, Shizenkan University, Reitaku University, Moralogy Foundation hamda Axloqiy fanlar ilmiy-tadqiqot instituti vakillari bilan samarali uchrashuvlar o‘tkazildi.

Mamlakat maktablarida bizni eng hayratga solgan jihatlardan biri – sinfxona, yo‘laklar va ovqatlanish zallari hech qanday majburlovsiz bolalarning o‘zlari tomonidan tartibga keltirilishi bo‘ldi. Bu bir qarashda oddiy yumushdek tuyulishi mumkin, lekin boshqa ko‘z bilan qaraganda mehnatga hurmat, pokizalik, mas'uliyat va jamoaviylikning amaliy ifodasi hamdir. Shuningdek, yapon ta'lim tizimida ma'naviy-axloqiy tarbiya alohida yo‘nalish sifatida yo‘lga qo‘yilgan.

Bilamizki, yapon xalqining ko‘plab qadriyatlari o‘zbek xalqining azaliy urf-odat va an'analari bilan mushtarakdir. Har ikki xalq ota-onani ulug‘laydi, ustozni e'zozlaydi, oilani muqaddas deb biladi. Tozalik, mehmondo‘stlik, kamtarlik, tabiatga hurmat, sabr va shukronalik kabi fazilatlar xalqlarimizni bir-biriga yaqinlashtiradi. Shu bois, Yaponiya tajribasini o‘zlashtirish deganda o‘z milliy qadriyatlarimizni zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirish tushuniladi.

Uchrashuvlar Meiji Gakuin University va Shizenkan University rahbariyati bilan akademik almashinuv, professor-o‘qituvchilar malakasini oshirish, qo‘shma ilmiy loyihalar hamda ta'lim boshqaruvi masalalari yuzasidan fikr almashishlar bilan davom etdi. Xususan, Moralogy Foundation va Reitaku University bilan ma'naviy-axloqiy tarbiya yo‘nalishidagi hamkorlik istiqbollari muhokama qilindi.

Bundan tashqari, United Nations Universityda tashkil etilgan xalqaro ochiq muloqotda ishtirok etib, uchrashuvda zamonaviy global jarayonlar, ta'lim diplomatiyasi va xalqaro hamkorlikning istiqbollariga oid muhim masalalar ko‘rib chiqildi. Yaponiya tajribasi, ayniqsa, boshlang‘ich ta'limda o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yondashuvlari bilan e'tiborga molikdir. Yapon maktablaridagi dars jarayonlarida bolalarning mustaqil fikrlashi, kichik guruhlarda ishlashi, ijodiy izlanishi va amaliy faoliyatiga keng imkoniyat yaratilgan.

Shuningdek, safar davomida inklyuziv ta'lim tajribasi bilan ham tanishdik. Funabashi Special Needs School faoliyati alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarni jamiyatga integratsiya qilish, ularga individual yondashuv asosida ta'lim berish borasida muhim tajriba maktabi bo‘ldi.

Muzokaralar yakunida ilg‘or tajribalarni Namangan viloyati ta'lim muassasalarida joriy etish, metodik materiallar almashish va mutaxassislar ishtirokida hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Shuningdek, 2026-yil sentabr oyining uchinchi o‘n kunligida Namangan davlat pedagogika institutida moralogiya ta'limi va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalariga bag‘ishlangan xalqaro onlayn seminar tashkil etish yuzasidan dastlabki kelishuvga erishildi.

**Munojat ASRANBOYEVA,**
**Namangan davlat pedagogika instituti**
**“Maktabgacha ta'lim” kafedrasi mudiri,**
**professor**
**Feruza HUSANOVA,**
**“Boshlang‘ich ta'lim innovatsiyalari” kafedrasi mudiri,**
**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)**

Ta'limga takliflarim

# PEDAGOGNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHI NEGA MUHIM?



Mashrabxon RAHMONOVA,
Farg'ona shahridagi
33-maktab o'qituvchisi

**Pedagog kadrlarning toifa attestatsiyasidagi imkoniyat va shaffoflik, o'qituvchi ish tajribasini ommalashtirish platformasining ishga tushirilishi va baholashdagi ochiqlik, Direktor jamg'armasidan o'qituvchiga ustama haq belgilashda inson omilining kamayishi, kuni kecha imzolangan "Canva for education" loyihasining joriy etilishi, albatta, soha xodimlarini quvontirishi tabiiy.**

Men o'qituvchiman. Bugun o'z taklifimni aytish uchun bo'lim, boshqarma va vazirlik qabulida vaqt sarflashim shart emas, bu borada MMTV tomonidan taklif botining ishga tushirilgani menga o'xshagan pedagoglar uchun ayni muddao. Shaxsiy kuzatuvlarim va jarayon ishtirokchisi sifatida ta'lim tizimi yo'nalishlaridan biri bo'lgan KRK(kasbiy rivojlanish kuni) va KRS(kasbiy rivojlanish soatlari) mashg'ulotlari bo'yicha ayrim taklif, fikr-mulohazalarimni bildirmoqchiman.

Zamonaviy ta'limda pedagogning uzluksiz kasbiy rivojlanishi nega muhim? Ayrim pedagoglar yangilanib borayotgan metodika, kasb standarti, pedagogik kompetensiyalar, zamonaviy baholash yondashuvlari bo'yicha yetarli tayyorgarlikka ega emas. Qolaversa, ta'lim, metodik jarayon qanday shaklda bo'lmasin bir joyda to'xtab turmaydi, hamisha yangilanib borishga ehtiyoj sezadi. Binobarin, ta'lim jarayonining faol iste'molchisi ham doimiy rivojlanishga ehtiyoj sezadi. To'g'ri, KRK va KRS mashg'ulotlari yangicha yo'nalish, lekin uni takomillashtirish, o'zgartirish tizim xodimlarining kechiktirib bo'lmaydigan vazifasidir.

1. KRK mashg'ulotlarining samaradorligi o'tkazilgan soatlar bilan emas, balki pedagogning kasbiy faoliyatida yuz bergan o'zgarishlar bilan baholanishi lozim va u o'qituvchilarning aniq ehtiyojlari hamda amaldagi kasbiy vazifalariga asoslanishi shart. Umumiy yondashuv va rasmiy ishtirok bilan cheklanmay, ishtirokchilarni guruhlash maqsadga muvofiq. Yosh mutaxassisning metodik ehtiyoji boshqacha bo'lsa, 10–15 yillik o'qituvchining ehtiyoji undan farqli va ilg'or pedagogning ehtiyoji esa turlicha bo'lishi mumkin:

a) yosh mutaxassis va rivojlanayotgan pedagog;

b) ilg'or murabbiy va ekspert ustoz.

Bu guruhlarning tashkil etilishi takroriy o'quv muhiti shakllanishining oldini oladi hamda vaqt resursidan samarali foydalanish imkonini yaratadi. Tajribali va yosh pedagogning bir xil o'quv dasturidan foydalanishi biroz yanglish masala. Pedagogik mahorat markazlaridagi jarayonni inkor etmayman, biroq u uzluksiz emas.

2. Kuzatishlarim asosida shuni aytmoqchimanki, toifa attestatsiyasida kasb standarti va pedagogik mahorat yo'nalishlarida talay bo'shliqlar mavjud. Agar pedagog kasb standarti va pedagogik mahorat, darsni rejalashtirish va baholashni chuqur o'zlashtirsa attestatsiyaga alohida tayyorgarlik bilan emas, balki kundalik faoliyati orqali tayyor bo'lib boradi. Testni yodlamaydi, test ortida turgan kasbiy vaziyatni chuqur anglaydi. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni individual ehtiyojdan ko'ra, umumiy reja asosida amalga oshsa, samaradorlik ortishiga sabab bo'ladi. Buning uchun 36 soatlik o'quv dasturini modullashni taklif qilaman:

1-modul: zamonaviy metodika va dars sifati – 12 soat.

2-modul: kasbiy kompetensiyalar – 12 soat.

3-modul: innovatsiya, tadqiqot, ommalashtirish – 12 soat.

Birinchi modul pedagogik startap laboratoriyasini yaratsa, ikkinchi modul uni to'ldiradi, ya'ni kasbiy o'sishdan kasbiy transformatsiya jarayoniga yetaklaydi. Uchinchi modul esa "nimani o'rgandim, nimani o'zgartiraman?" degan savolga javob bo'la olishiga ishonaman.

3. O'rganilgan bilim, tajriba sinfxonada qolib ketmasligi, uning natijadorlik jarayoni, qay darajada muhimligi ilmiy maqola va metodik tavsiya yozishga zamin yaratishi lozim. Aynan ana shu jarayon o'qituvchini izlanuvchi-tadqiqotchi darajasiga olib chiqishi kerak. Zotan, amaliyotdan ajralmagan holda o'tkazilgan tajriba faoliyatda uchraydigan metodik muammolarga muqobil yechim bo'lishi mumkin. Pirovardida pedagogning akademik potensiali sekin-asta oshib borib, ilmiy ish qilishga o'zida rag'bat topa oladi. To'g'ri, bu jarayon 12 soatli modul bilan amalga oshmaydi, ammo tizimli yondashuv taklifga yechim bo'la oladi.

4. Yetakchi o'qituvchi mehnatini rag'batlantirish. O'quv-metodik jarayon ta'limning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Koordinator nazorati ostidagi metodik ishlar yetakchi o'qituvchining zimmasiga yuklatilganligi barchamizga ma'lum. Har qanday qo'shimcha yuklama mas'uliyat demakdir. Zero, intellektual mehnat qadrlansa, yangi g'oya va tashabbuslarga yo'l ochib, ruhlantiradi.

Yuqorida keltirilgan takliflar, huquqiyme'yoriy hujjatda ta'kidlanganidek, metodist-olimlar ko'magida, Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktablar tajribasidan kelib chiqib, malakali mutaxassislar yordamida amalga oshishiga ishonaman. Maqsadim faqat taklif berish emas, amalda qo'llash mumkin bo'lgan, haqiqatan o'qituvchiga foyda beradigan model yaratilishiga hissa qo'shishdir.

Sizga gapim bor

# QULAYLIK QAFASI: "НЕХОЧУХА" SINDROMI YOKI IRODAMIZGA QO'YILGAN TASHXIS

**Bolaligimizda sevib ko'p bora tomosha qilgan o'sha mashhur "Нехочуха" multfilmini eslaysizmi? "Xohlamayman!" deya o'zini divanga tashlagan, robotlar yordamida kiyintirilib, ovqatlantiriladigan qahramon o'sha payti bizga kulgili va ayni vaqtda hech qachon hayotimizda uchramaydigan bir to'qima obrazdek tuyulardi. Lekin bugun ortimizga nazar tashlasak, o'sha multfilmda kelajak jamiyatining eng katta ijtimoiy kasalligi – "komfortga o'rganib qolish" sindromi bashorat qilinganini anglaymiz.**

### Illyuzor baxt yoki irodaning degradatsiyasi

Insoniyat tarixi – necha ming yillardan buyon davom etib kelayotgan uzluksiz kurash va intilishlar silsilasidir. Ajdodlarimiz "Mehnat bilan el ko'karar" deb mehnatni ulug'lashgan. Chunki ular mehnat – insonni tirik saqlovchi eng katta kuch ekanini yaxshi bilishgan.

Bugun-chi? XXI asrga kelib esa biz "Нехочуха"lar sayyorasi"da yashayotgandekmiz: taksilar eshigimiz tagigacha keladi, yegulikni telefon orqali buyurtma qilamiz, eng yomoni esa fikrlash o'rniga sun'iy intellekt va tayyor kontentlardan foydalanamiz. Bu fan-texnika taraqqiyoti mahsuli, qulaylik, albatta. Ammo uning ortida "kognitiv degradatsiya" yashiringan. Miya xuddi tana muskullari kabi: agar undan foydalanmasangiz, u atrofiyaga uchraydi. Kitob o'qib, tasavvur olamida kezish yoki murakkab hisob-kitoblar ustida bosh qotirish – bu miya uchun ayni "gantel" ko'tarishdek gap. Agar biz bu zo'riqishdan voz kechib, faqat tayyor, chaynalgan axborotni iste'mol qilsak, irodamiz ham xuddi multfilmdagi qahramon kabi ishdan chiqadi.

### Ijtimoiy audit: biz nima yo'qotmoqdamiz?

Moliyaviy nuqtayi nazardan qaraganda, har qanday balansda "debet" va "kredit" teng bo'lishi kerak. Jamiyatimizda esa hozir "kredit", ya'ni bizga berilayotgan yengillik, qulayliklar va tekin lazzatlar haddan tashqari ko'payib ketdi. Ammo "debet" tomoni, ya'ni mehnat, mas'uliyat, fidoiylik va odamlarga chin dildan yordam berish istagi ayniqsa yosh avlod vakillarida sekin-asta kamayib boryapti.

Pandemiya davridagi sinovli kunlarni eslaylik. O'shanda ko'pchilik uyida o'tirib, "xohlamayman" deganda, o'z ishiga fidoyi



bo'lgan insonlar ko'chaga chiqdi, odamlarga dori-darmon va yegulik yetkazdi. Bu – komfortdan voz kechib, hayotni tanlash edi. Bugun esa biz o'sha hayotiy chiniqishdan uzoqlashib, yana "Нехочуха" holatiga qaytayapmiz.

### Parashyutni kim kashf qiladi?

Maqolda aytilganidek, "Optimistlar samolyotni, pessimistlar esa parashutni kashf qilishgan". Optimistlar texnologiya va qulaylikka ishonib, bulutlar uzra parvoz qilishni xohlashadi. Ammo agar motor o'chib qolsa, ularni faqat pessimistlar yaratgan "parashut", ya'ni tanqidiy fikrlash, qiyinchiliklarga chidamlilik va mehnatsevarlik qutqarib qoladi.

Bizga hozir aynan mana shu "parashyut" kerak. Hayot tayyor yechimlar yig'indisi emas, balki zinadan ko'tarilish, har kuni kichik bo'lsa-da, maqsad qo'yish va eng muhimi, "xohlayman" degan irodani tarbiyalashdir.

"Нехочуха" sindromidan chiqishning yagona yo'li – ongli ravishda qiyinchilikni tanlashdir. Lift borligida zinadan ko'tarilish, telefon borligida kitob varaqlash, tayyor yechimlar borligida o'z fikrini izlash – bular shunchaki odat emas, balki o'zligimizni saqlab qolish uchun kerak bo'lgan ichki isyon.

Komfort tanani orom oldirishi mumkin, lekin faqat mehnat va mas'uliyatgina ruhni tirik saqlaydi. Unutmang, bizga berilgan hayot "xohlamayman" deb o'tirish uchun emas, balki "xohlayman va qila olaman" deya o'zini namoyon qilish uchun berilgan eng katta imkoniyatdir. Bu barchasi mening shaxsiy fikrlarim edi, siz nima deysiz, aziz zamondosh?

Nargiza TURG'UNOVA,
oddiy hisobchi

Taklif

# HALOLLIK OILADAN BOSHLANADI

## *Sun'iy intellekt davrida qadriyat tarbiyasi*



Xosiyat SHIXOVA,
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

**Insonda halollik tuyg'usi, avvalo, oilada shakllanadi. Farzand hayot qoidalarini ota-onasidan o'rganadi. Bola qalbiga halollik urug'i go'daklikdanoq ekilmasa, keyinchalik hech bir bosqich bu bo'shliqni to'ldira olmaydi.**

AQSH, Buyuk Britaniya va BAAdan uch nafar nufuzli olima hammuallifligida yozilgan "Sun'iy intellekt davrida akademik halollik" nomli kitob bor. Kitobda 2045-yilda sodir bo'ladigan xayoliy voqea tasvirlanadi. Hikoya qahramoni – talaba Cheys imtihonni o'z kuchi bilan emas, sun'iy intellekt yordamida topshiradi. Qizig'i shundaki, u bu qilmishi uchun o'zini aybdor deb hisoblamaydi. "Axir hamma shunday qiladi-ku!" deya o'zini oqlaydi. Cheysning fojiasiga sabab uning qalbida halollik tuyg'usi oilada shakllanmagani edi.

Xo'sh, oilada halollikni qanday shakllantiramiz? Javob murakkab emas, ammo izchillik talab qiladi. Bola tabiatan kattalarga taqlid qiladi, ularning har bir xatti-harakatidan "nusxa oladi". O'zimiz qanday bo'lsak, bolalarimiz ham shunday bo'ladi. Bola oldida "Men xato qildim, kechirim so'rayman", deb ayta olish; navbatda sabr bilan turish va buning sababini bolaga tushuntirish; o'z mehnati bilan erishilgan kichik natijadan ham faxrlanishni o'rgatish; oilada "bizning qoidamiz" degan aniq axloqiy chegaralarni belgilash – bularning barchasi bolaning qalbiga halollikni singdiradi. Yuzta nasihatdan ko'ra, bir marta o'rnak bo'lish kuchliroq ta'sir qiladi.

2022-yil noyabrida ChatGPT ishga tushgan kuni dunyo o'qituvchilari "Bu ko'chirmachilik mashinasi!" deb hayqirgan edi. Ammo o'tgan yillar shuni ko'rsatdiki, muammo ancha chuqurroq. Sun'iy intellekt sabab emas. U shunchaki yillar davomida e'tibordan chetda qolgan bir muammoga ko'zgu tutdi.

Kitobda yana bir qahramon bor – universitetning akademik halollik bo'limi rahbari Veriti. U tinimsiz kurashdan charchagan, chunki yolg'iz kurashadi: har yili yangi sun'iy intellekt paydo bo'ladi, u esa unga qarshi yangi nazorat mexanizmlarini joriy etadi. Mualliflar bu hikoyani "muqarrar taqdir" sifatida emas, balki ogohlantirish sifatida yozgan. Kitobni o'qigach, shunday savol tug'iladi: **2045-yilda bizni ham shunday kelajak kutmoqdami?** Agar bugun hech narsa qilmasak – ha.

Akademik Halollik Xalqaro Markazi (ICAI) ma'lumotlariga ko'ra, talabalarning 60 foizdan ortig'i hayoti davomida u yoki bu shaklda akademik nohalollik qilgan. AQSHda 70 mingdan ortiq maktab o'quvchisi ishtirok etgan yirik so'rovda 64 foiz o'quvchi imtihonda ko'chirganini, 58 foizi plagiatga yo'l qo'yganini, 95 foizi esa hech bo'lmaganda bir marta nohalollik qilganini tan olgan. Sun'iy intellekt bu manzarani yanada murakkablashtirdi: 2023-yilgi tadqiqotga ko'ra, AQSHdagi 12–18 yoshli o'smirlarning 58 foizi topshiriqlarni bajarishda ChatGPTdan foydalanganini bildirgan.

Yurtimizda bu borada tadqiqotlar o'tkazilmagan – bu bizning eng katta bo'shlig'imiz. Muammoni ko'rmasdan turib, uni hal qilib bo'lmaydi. Aynan shu bo'shliqni to'ldirish – ilmiy faoliyatimizning asosini tashkil qiladi. Ilmiy izlanishlarimiz Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti negizida olib borilmoqda. U **pedagogik komplayens**, ya'ni o'quvchiga qoidani majburlashdan avval uning mazmuni va qadrini anglatishga bag'ishlangan. Izlanishlarimiz quyidagi yo'nalishlarda olib borilmoqda:

Birinchidan, xalqaro miqyosda e'tirof etilgan **ICAI McCabe** akademik halollik so'rovnomasini o'zbek va rus tillariga moslashtirib, universitetning o'nta fakultetidagi 500 nafar talaba o'rtasida o'tkazmoqdamiz. Bu yurtimizda birinchi marta tashkil etilmoqda. Uning natijalari O'zbekiston talabalarining halollikka oid qarashlarini jahon ko'rsatkichlari bilan ilk bor ilmiy asosda taqqoslash imkonini beradi.



Ikkinchidan, dunyoning turli mamlakatlarida chop etilgan yuzlab ilmiy tadqiqotlarni tizimli tahlil qilib, sun'iy intellekt va akademik halollik borasida bugungi kungacha nimalar ma'lum ekani yuzasidan umumlashtirilgan ilmiy xulosalarni shakllantirmoqdamiz.

Uchinchidan, universitetda halollik madaniyatiga oid o'quv modullarini ishlab chiqish hamda ilmiy etika qo'mitasini shakllantirish ishlarida bevosita qatnashyapmiz. Bu yo'lda yolg'iz emasmiz. Tadqiqotlarimizni Akademik Halollik Xalqaro Markazi (ICAI)ning ilmiy tadqiqotlar bo'yicha vitse-prezidenti, Yangi Zelandiyadagi Oklend universiteti professori Jeyson Stivens hamda ICAI Boshqaruv kengashi a'zosi, kanadalik professor Jenni Miron ilmiy hamkor sifatida qo'llab-quvvatlamoqda. Bundan tashqari, Yevropa Akademik Halollik Tarmog'i (ENAI) bilan ham hamkorlik qilmoqdamiz. Markaziy Osiyoda ilk "O'zbekiston Akademik Halollik Konsorsiumi"ni tashkil etish bizning eng katta orzumizdir.

Prezidentimizning 2023-yil 19-dekabr kuni korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha yuksak xalqaro mukofotni topshirish marosimida aytgan: "Ongi va qalbi bolalikdan "halollik vaksinasi" bilan emlangan yangi avlodni kamolga yetkazish – ustuvor vazifamizdir", degan fikrlari butun faoliyatimizning mohiyatini ifodalaydi.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasining birinchi yo'nalishi – "har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish"dir. Inson salohiyati faqat bilim bilan emas, avvalo, halollik, mas'uliyat va adolat tuyg'usi bilan to'la namoyon bo'ladi. Bu yo'nalish sog'lom, bilimli va ma'nan yetuk avlodni tarbiyalashni ko'zlaydi. Bunday fazilatlarni shakllantirish esa bevosita oiladan boshlanadi. Strategiyaning to'rtinchi yo'nalishi – qonun ustuvorligi va adolatli boshqaruv – bu tarbiyaning yakuniy manzilidir. Boshi oilada, oxiri jamiyatda: qadriyat zanjiri mana shunday yaxlit.

Bu siyosat mustahkam qonuniy poydevorga tayanadi: 2017-yildan buyon amal qilib kelayotgan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, Oliy Majlis Senati raisi boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashi hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasi bunga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Yurtimizda jazolashdan ko'ra uning oldini olish, halollik muhitini yaratishga katta urg'u berilmoqda. Bu yondashuv ilm-fandagi eng zamonaviy qarashlar bilan hamohangdir.

Halollikni shakllantirishda oila ilk halqa bo'lsa-da, bog'cha halollikning birinchi rasmiy maktabidir. Bu yerda hamma narsa o'yin va o'rnak orqali o'rgatiladi. Maktabda esa "Ko'chirma qilma", deyiladi, biroq buning sababi tushuntirilmaydi. Natijada o'quvchi buni qoida emas, to'siq deb biladi va uni chetlab o'tishga urinadi. Yo'l qoidalarini o'rgatmasdan guvohnoma berib, keyin jarima solish – bu xavfsizlik emas, balki avariyani kutib yashashdir.

Kasb-hunar ta'limida muammo yanada xatarli tus oladi: amaliyot daftarini ko'chirish, malaka ishini sotib olish, natijalarni soxtalashtirish… Biz buni oddiy ta'lim muammosi deb hisoblaymiz, biroq bu jamiyat uchun naqadar katta xavf ekanini yetarlicha anglamaymiz. Tasavvur qiling, sertifikatni "sotib olgan" muhandis ko'prik qursa yoki amaliyotni "qog'ozda o'tagan" hamshira bemorlarni parvarish qila boshlasa… Auditoriyadagi soxta halollik ertaga jamiyatda haqiqiy fojiaga aylanishi mumkin. Oliy ta'limda esa har bir universitet sun'iy intellektdan foydalanish bo'yicha aniq siyosatga ega bo'lishi, talabalarni undan qaytarmasdan, halol va mas'uliyatli foydalanishga o'rgatishi zarur. Biz ilmiy faoliyatimizda aynan shu yondashuvning samarasini ko'rib turibmiz.

Muammoning mohiyatini tahlil qildik. Uni hal etish bo'yicha takliflarimiz esa quyidagicha:

**"Qadriyat pasporti".** Har bir ta'lim muassasasi – bog'chadan universitetgacha yil davomida halollik yo'lida nima qilganini ochiq hisobot shaklida e'lon qilsin. Shunda kim haqiqatan ishlayotgani, kim faqat qog'ozda hisobot yozayotgani ko'rinadi.

**"Halol oila – halol farzand" yo'nalishi.** Mahalla, bog'cha va maktablar hamkorlikda ota-onalar uchun muntazam suhbatlar tashkil etsin. Mavzu – kundalik hayotda farzandga halollikni qanday o'rgatish. Bu zanjirning eng birinchi bo'g'inini mustahkamlaydi.

**Fidoyilarni qo'llab-quvvatlash.** Halollik bilan mehnat qilayotgan o'qituvchi, metodist va tadqiqotchilarga e'tirof zarur. Ularga xalqaro anjumanlarda qatnashish va tajribasini ulashish imkoniyati berilsa, yaxshi bo'lardi.

**Konsorsiumni tashkil etish.** ICAI va ENAI kabi tashkilotlar bilan hamkorlikda "O'zbekiston Akademik Halollik Konsorsiumi"ni rasman tuzish vaqti keldi. Uning tarkibiga bog'cha, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim vakillari kirsin – bu yurtimizni mintaqada shu sohaning yetakchisiga aylantiradi.

Biz dunyoni bir o'zimiz o'zgartira olmaymiz. Ammo o'z sahifamizni yozishimiz mumkin. Sizning ham qo'lingizda bir sahifa bor: uni ota sifatida oila davrasida, ona sifatida farzand tarbiyasida, o'qituvchi sifatida sinfda yozasiz. 2045-yil hali yozilmagan. Uning qanday yozilishi bugun aynan sizning oilangizda hal bo'lmoqda. Zero, hammasi oiladan boshlanadi.

Kasbiy ta'lim

# Azimjon HUSANOV: "Dunyoning eng kuchli mutaxassislari bilan tengma-teng bellasha oladigan kadrlar tayyorlashni maqsad qilganmiz!"

(Davomi. Boshi 1-betda.)



Tanlov haqida batafsilroq gapiradigan bo‘lsak, unda 16 yoshga to‘lgan va 30 yoshdan oshmagan texnikum o‘quvchilari, talaba-yoshlar hamda band bo‘lmagan aholi vakillari ishtirok etdi. Ishtirokchilar




elektromontaj, payvandlash texnologiyasi, santexnika, tibbiy va ijtimoiy g‘amxo‘rlik, quruq qurilish va suvoq ishlari, sartaroshlik, avtomobillarga texnik xizmat ko‘rsatish, moda texnologiyalari, oshpazlik va kompyuter grafikasi kabi 10 ta yo‘nalish bo‘yicha mahoratini sinovdan o‘tkazdi. Dastlabki – mahalla bosqichida 124 371 nafar yosh qatnashdi. Viloyat bosqichida esa jami 6733 nafar ishtirokchi bellashdi. Ularning 3490 nafari mahalladagi band bo‘lmagan yoshlar bo‘lsa, 3243 nafari texnikum o‘quvchilari edi. Keyingi saralash natijasida 610 nafar ishtirokchi respublika bosqichida qatnashish huquqini qo‘lga kiritdi. Yakuniy bosqichda esa 120 nafar ishtirokchi g‘olib va sovrindor deb topildi. Tanlov nizomiga muvofiq, har bir kasb yo‘nalishi bo‘yicha 2 nafardan birinchi, 4 nafardan ikkinchi va 6 nafardan uchinchi o‘rin sohiblari aniqlandi. Sovrindorlarning 68 nafari(56,7 foiz) texnikum o‘quvchilari, 52 nafari(43,3 foiz) esa mahallalardan tanlovga jalb etilgan, bandligi ta'minlanmagan yoshlar bo‘ldi.

Tanlov jarayonlarini xalqaro va mahalliy darajadagi 3474 nafar ekspert baholab bordi. Alohida ta'kidlash joizki, mamlakatimizda kasbiy mahorat ilk bor bunday muhtasham sahnada e'tirof etildi. G‘oliblar va ularning ustozlari medal va pul mukofotlari bilan taqdirlandi.

Medallar taqsimotida Samarqand viloyati vakillari 25 ta medal bilan eng yuqori natijani qayd etdi. Sirdaryo va Buxoro viloyatlari 13 tadan, Toshkent shahri 12 ta, Namangan viloyati esa 11 ta medal bilan keyingi o‘rinlarni egalladi.

## G‘olibl ikni yakuniy natija emas, katta mehnatning boshlanishi sifatida qabul qilishimiz kerak!

Kasbiy ta'lim agentligi direktori Azimjon Husanov g‘olib va sovrindorlarni tabriklar ekan, yuqori natija ko‘rsatgan ishtirokchilar orasidan O‘zbekiston terma jamoasini shakllantirish, ularni "WorldSkills International" xalqaro tanloviga puxta tayyorlash rejalashtirilayotganini ta'kidladi. Uning qayd etishicha, buning uchun eng kuchli mahalliy va xorijiy mutaxassislar jalb etilib, yoshlarning xalqaro darajadagi musobaqaga tayyorlanishi uchun zamonaviy uskunalar, o‘quv-mashq bazalari va zarur sharoitlar yaratiladi.








– Biz bu yoshlarni shunchaki xalqaro tanlovga olib chiqishni emas, ularni dunyoning eng kuchli mutaxassislari bilan tengma-teng bellasha oladigan darajaga yetkazishni maqsad qilganmiz, – deydi agentlik direktori. – Buning uchun, avvalo, yoshlarning mavjud mahoratini to‘g‘ri baholash, qaysi ko‘nikmalarini yanada rivojlantirish kerakligini aniqlash va shunga mos individual tayyorgarlik tizimini yo‘lga qo‘yish zarur. Musobaqalardagi bir necha daqiqalik yoki soatlik topshiriq ortida yillar davomida shakllangan bilim, ko‘nikma, intizom va tajriba turadi. Shuning uchun bugungi g‘oliblikni yakuniy natija emas, katta mehnatning boshlanishi sifatida qabul qilishimiz kerak.



Shubhasiz, xalqaro maydonda raqobatlashish uchun mahalliy tanlovdagi yuqori natijaning o‘zigina yetarli emas. "WorldSkills International" kabi musobaqalarda ishtirokchining kasbiy bilim va mahorati bilan birga ishni belgilangan vaqt ichida bajarishi, texnologik jarayonga rioya qilishi, xavfsizlik talablarini bilishi, zamonaviy uskunalardan samarali foydalana olishi va natijaning sifatini ham ta'minlay olish muhim. Yoshlarimizni aynan mana shu talablar asosida tayyorlashimiz kerak. Shu sababli terma jamoa a'zolarini tayyorlash jarayonida faqat amaliy mashg‘ulotlar bilan cheklanib qolmaymiz. Ularning xorijiy tillarni o‘rganishi, xalqaro tajriba bilan tanishishi, dunyoning yetakchi mutaxassislari bilan tajriba almashishi uchun ham imkoniyat yaratamiz.

Jarayonga nazar tashlarkansiz, mehnatga munosabat, hunarning qadri va kasbni tanlashga bo‘lgan qarashlar zamon bilan uyg‘unlashuvi sizni-da quvontiradi. Ha, bugun siz kasbni to‘g‘ri tanlashingiz va maqsadlaringizni amalga oshirishda harakatdan to‘xtamasangiz bas! Imkoniyat eshiklari esa o‘z-o‘zidan ochilaveradi.

Shahnoza YANGIBOYEVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Mustaqillik darsi

# “YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO‘LIB,

## (1–4-sinflar uchun dars ishlanma)

**Dars shiori:**
**MEN → OILAM → MAHALLAM → XALQIM → VATANIM → KELAJAGIM**

**Darsning muammoli savoli:**

**“Mustaqillik bizga qanday imkoniyatlar berdi va men Vatanimning porloq kelajagi uchun nima qila olaman?”**

**Darsning maqsadi:**

**Ta’limiy maqsad:** O‘quvchilarda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi, uning tarixiy ahamiyati, davlat ramzlari, tinchlik, milliy qadriyatlar va mustaqillik yillarida yaratilgan imkoniyatlar haqida yoshiga mos bilim va tasavvurlarni kengaytirish.

**Tarbiyaviy maqsad:** Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, tinchlik va mustaqillikni qadrlash, davlat ramzlariga hurmat, xalqimizning qadriyatlariga sadoqat, birlik va hamjihatlik tuyg‘ularini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** O‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlashi, savollarga asosli javob berishi, o‘z fikrini erkin ifodalashi, jamoada ishlashi, xulosa chiqarishi hamda Vatan kelajagiga daxldorlik hissini rivojlantirish.

**Dars turi:** yangi bilim beruvchi, interaktiv-tarbiyaviy dars.

**Dars shakli:** individual, juftlik, jamoaviy va frontal faoliyat uyg‘unligi.

**Metodlar:** “Bilim yo‘li”, “Sirli konvert”, “Vatan quyoshi”, “Muammoli savol”, “35 yil – 35 qadam”, “Mustaqillik daraxti”, “Kelajak bunyodkori – MEN!”, “Tinchlik kabutari”, “Uch so‘zda Vatan”, “Mustaqillik shari – Kelajakka ezgu tilak!”.

### DARSNING BORISHI

### I. Tashkiliy-motivatsion bosqich – “Bilim yo‘li” (4 daqiqa)




Sinf eshigidan partalargacha rangli oyoq izlari joylashtiriladi: BILIM → DO‘STLIK → ORZU → IZLANISH → KITOB → MUVAFFAQIYAT

**O‘qituvchi:** *“Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Bugun biz yangi o‘quv yilining ilk sahifasini ochamiz. Siz sinfga oddiy yo‘ldan emas, “Bilim yo‘li”dan kirib keldingiz. Ayting-chi, bu yo‘lning oxiridagi “Muvaffaqiyat”ga qanday erishamiz?”*

O‘quvchilarning qisqa javoblari tinglanadi. Metodik maqsad: bola darsning ilk daqiqasidanoq kuzatuvchi emas, faol ishtirokchiga aylanadi.

### II. “Sirli konvert” – “Bu xat faqat sen uchun!” (3 daqiqa)

Har bir partada bolaning ismi yozilgan konvert bo‘ladi. Masalan: *“Surayyo, bu xat faqat sen uchun!”*

Konvert ichida qisqa tabrik, medal yoki motivatsion kartochka bo‘ladi: *“Aziz o‘quvchim! Yangi o‘quv yiling muborak! Seni yangi bilimlar, kashfiyotlar va muvaffaqiyatlar kutmoqda. O‘zingga ishon! Bilim seni yuksaltiradi, mehnat seni kuchaytiradi, ezgulik seni bezaydi. Men senga ishonaman!”*

*Mehr bilan sinf rahbaring Surayyo Murodova.*

To‘liq tabrik xatini bola uyiga olib ketadi. Bu vaqtni tejaydi va konvertning emotsional qiymatini saqlaydi.




### III. “Vatan yurakdan boshlanadi” – “Vatan quyoshi” (5 daqiqa)

Doskaga “VATAN” deb yozilgan katta quyosh ramzi joylashtiriladi. O‘qituvchi: *“Bolajonlar, Vatan deganda qalbingizda birinchi bo‘lib qanday so‘z, inson, joy yoki tuyg‘u paydo bo‘ladi?*




**O‘quvchilar:** Oila – Ona – Ota – Uy – Mahalla – Maktab – Ona tilim – Bayroq – Tinchlik – Do‘stlik – Tarix – ajdodlar – milliy qadriyatlar – kelajak... Javoblar quyosh nurlariga joylashtiriladi.

**Muammoli savol:** “Mustaqillik bizga nima berdi va biz Vatanimizga nima bera olamiz?”.

**Metodik xulosa:** Vatan uzoqdan boshlanmaydi. Vatan – oilamiz, uyimiz, mahallamiz, maktabimiz va qalbimizdagi mehrdan boshlanadi.

MEN → OILAM → MAHALLAM → XALQIM → VATANIM → KELAJAGIM

### IV. “35 yil – 35 qadam” (6 daqiqa)

O‘qituvchi yoshga mos qisqa tarixiy ma’lumot beradi: 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e’lon qilindi. 1-sentabr Mustaqillik kuni sifatida nishonlanadi. 2026-yilda mustaqilligimizning 35 yilligi nishonlanadi.

Qisqa videolavha namoyish etiladi. “35 yil davomida Vatanimizda nimalar o‘zgardi?” savoli asosida ta’lim – sport – ilm-fan – texnologiya – bunyodkorlik – madaniyat yo‘nalishlari muhokama qilinadi.

# YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!”

**Asosiy savol:** “Bu imkoniyatlarning qaysi biri sizning hayotingizda bor?” Shu tariqa tarixiy ma’lumot bola hayoti bilan bog‘lanadi.

### V. “Mustaqillik menga nima berdi?” – “Mustaqillik daraxti” (5 daqiqa)

Har bir o‘quvchiga barg yoki olma shaklidagi stiker beriladi. Ular “Mustaqillik tufayli men...” jumlasini davom ettiradilar:




– tinch yurtda yashayman;
– maktabda bilim olaman;
– ona tilimda o‘qiyman;
– sport bilan shug‘ullanaman;
– orzularim sari intilaman;
– kelajak kasbimni tanlay olaman.

Stikerlar “Mustaqillik daraxti”ga joylashtiriladi.

**O‘qituvchi xulosasi:** *“Daraxt ildizsiz yashay olmaydi. Bizning imkoniyatlarimizning mustahkam ildizi – tinchlik, mustaqillik va birlikdir.”*

### VI. “Tinchlik kabutari” didaktik o‘yini (6 daqiqa)

Doskada O‘zbekiston xaritasi va moviy osmon tasviri joylashtiriladi. 12 ta oq kabutar tayyorlanadi. 45 daqiqalik darsda 5–6 ta kabutar savoli sinf bilan faol bajariladi, qolganlari “Tinchlik osmoni” kompozitsiyasini to‘ldiradi.




**Savollar:**
1. Tinchlik deganda nimani tushunasiz?
2. Nima uchun tinchlik eng katta ne’mat?
3. “Tinchlik bor joyda...” jumlasini davom ettiring.
4. Vatanimizga uchta ezgu tilak bildiring.
5. Do‘stlaringiz bilan ahil yashash uchun nima qilasiz?
6. Tinchlikni ifodalovchi uchta so‘z ayting.
7. Ikki do‘st janjallashsa, ularni qanday yarashtirasiz?
8. Nima uchun oq kabutar tinchlik ramzi?
9. “Men tinchlikni qadrlayman, chunki...” jumlasini davom ettiring.
10. Mustaqillik va tinchlik qanday bog‘langan?
11. O‘zbekiston kelajagini qanday tasavvur qilasiz?
12. “Men Vatanim tinchligi uchun...” jumlasini davom ettiring.

Har bir javobdan so‘ng kabutar O‘zbekiston xaritasi atrofiga joylashtiriladi. Natijada “Tinchlik osmoni” hosil bo‘ladi.



Surayyo MURODOVA,
Romitan tumanidagi
1-maktab direktorining o‘quv ishlari
bo‘yicha o‘rinbosari,
Xalq ta’limi a’lochisi

### VII. “Kelajak bunyodkori – MEN!” (5 daqiqa)

O‘qituvchi: *“Biz Mustaqillik bizga nimalar berganini aytdik. Endi savolni o‘zgartiramiz: Men Vatanimga nima bera olaman?”*

O‘quvchilar “Men O‘zbekistonning kelajagi uchun...” jumlasini davom ettiradilar.

Kuchli pedagogik formula: MUSTAQILLIK → IMKONIYAT → MAS’ULIYAT → HARAKAT → KELAJAK

### VIII. Refleksiya – “Uch so‘zda Vatan” (3 daqiqa)

O‘qituvchi: “Agar siz bugungi darsdan faqat uchta so‘zni yuragingizga olib ketsangiz, ular qaysi so‘zlar bo‘lardi?”

Namunalar:
Tinchlik – Birlik – Kelajak
Vatan – Faxr – Baxt
Mustaqillik – Imkoniyat – Mas’uliyat
Bilim – Mehnat – Kelajak

Bu metod darsning tezkor diagnostikasini ham beradi: o‘quvchilar qaysi tushunchalarni eng muhim deb qabul qilganini ko‘rsatadi.

### IX. Yakuniy rag‘bat – “Mustaqillik shari – Kelajakka ezgu tilak!” (5 daqiqa)

Doskaga rangli sharlar joylashtiriladi. Har bir sharning orqasida “Vatanimiz faxri bo‘ladigan farzand bo‘l!”, “Tinchlikni qadrlab, doimo ezgulik sari intil!”, “Biliming bilan O‘zbekiston kelajagiga hissa qo‘sh!”, “Yangi O‘zbekistonning munosib bunyodkori bo‘l!”, “Kelajaging porloq bo‘lsin!” kabi ezgu tilaklar yozilgan bo‘ladi. O‘quvchi o‘ziga yoqqan sharni tanlaydi.

Tilak o‘qilgach, o‘quvchi bir jumlada: “Sen bu o‘quv yilida Vatanimiz kelajagi uchun qanday yaxshi ish qilishni niyat qilding?” savoliga javob beradi.

### Yakuniy umumiy va’da

**“Biz – Yangi O‘zbekiston farzandlarimiz! Vatanimizni sevamiz, tinchligimizni qadrlaymiz, bilim olishga intilamiz. Ota-onamizni va ustozlarimizni hurmat qilamiz. Do‘stlik va birlikni asraymiz. Bilimimiz, mehnatimiz va ezgu ishlarimiz bilan Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shamiz. Yagona Vatan, yagona xalq bo‘lib, yangi hayot va porloq kelajak yaratamiz!”**

### Yakuniy tavsiyalar

Ushbu darsda ko‘rgazma maqsad emas, pedagogik vosita bo‘lishi kerak. Har bir metodni keyingi metodga mantiqan olib borishi zarur:

“Bilim yo‘li” – Men yangi yo‘lni boshladim.
“Sirli konvert” – Men qadrlanaman va menga ishonishadi.
“Vatan quyoshi” – Vatan mening hayotimdan boshlanadi.
“35 yil – 35 qadam” – Mustaqillik taraqqiyot va imkoniyat yaratdi.
“Mustaqillik daraxti” – Men bu imkoniyatlardan foydalanayapman.
“Tinchlik kabutari” – Bu imkoniyatlarning asosida tinchlik turadi.
“Kelajak bunyodkori – MEN!” – Endi mening ham mas’uliyatim bor.
“Uch so‘zda Vatan” – Men darsdan asosiy qadriyatlarni angladim.
“Mustaqillik shari” – Men kelajakka ezgu niyat bilan qadam qo‘yaman.

1–4-sinflarga bir xil murakkablikdagi topshiriq berilmaydi. 1-sinfda rasm, rang, bitta so‘z va sodda gaplardan; 2-sinfda tugallanmagan jumlalardan; 3-sinfda sababni tushuntirishdan; 4-sinfda esa “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Men nima qila olaman?” kabi tahliliy savollardan foydalanish tavsiya etiladi.

**HIS QILDIM → ANGLADIM → FIKR BILDIRDIM → MAS’ULIYAT OLDIM**

2026-yil 12-avgust, № 32(9617)



Shapaloq

# HOKIM BOBO, BIZNIKIGA QACHON KELASIZ?!

Ha, men ham o‘sha videoni ko‘rdim, aka. Shu kundan beri na kechada halovat bor, na kunduzda. Bilasiz, o‘qituvchi odammiz. “Hokim” desa, shusiz ham oyog‘imiz qaltiraydi. Eski davrda hokim bobolar bizni zir titratgan. Ne kunlarni ko‘rmadik, deysiz. Paxta terganmiz, daraxt oqlaganmiz, ko‘cha tozalaganmiz, soliq yiqqanmiz, ajrashganlarni yarashtirganmiz, yarashganlarni ajrashtirganmiz... Xullas, hokim bobodan so‘kish eshitmagan biror o‘qituvchi bo‘lmasa kerak.

Maktabdan qaytib, uyga keldim. Charchagan miyani ozroq chalg‘itay deb ijtimoiy tarmoqlardan video tomosha qila boshladim. Oldimdan lop etib bir tuman hokimining uyma-uy kirib, odamlarning ro‘zg‘orini tekshirib yurgani, tozalikka e’tiborsiz kelinlarni qaynonalardek tergayotgani, hatto yotoqxonalargacha kirib, taftish o‘tkazayotgani videosi chiqib qoldi. Uyning hech bir kunjagi hokim boboning sinchkov nigohidan chetda qolmagan. Yuvilmagan idish-tovoqdan yig‘ilmagan o‘ringacha, eskirgan botinkadan oqlanmagan devorgacha hammasini birma-bir tekshirib, tanbeh beryapti. Hatto kun qizigan payti uxlayotganlarni ham do‘qlayapti. Ro‘zg‘orni yaxshi tutmaganlarni hatto jarimaga tortayapti. *“Hammaning uyi menikidek saranjom-sarishta bo‘lsin. Xohlasalaring, mening uyimga borib, xonadonni qanday toza saqlashni o‘rganinglar”, deyapti.*

Videoni ko‘rdim-u, sapchib o‘rnimdan turdim. Yuragimni qo‘rquv bosdi. “Hozir, shu daqiqada eshikni tepib, biznikiga ham kirib qolsa, nima qilaman?!”. Aytib bo‘ladimi?!

Xudoga shukur, bizning uyimiz (o‘zi bir xonalik kichkinagina kvartirada ijarada turamiz) hokim bobo kirgan uylardagidek emas. Keliningiz tozalikka qattiq e’tibor qiladi. Ammo qaysi uyda kamchilik yo‘q, deysiz.

Bir qarasam, o‘quvchilarning yozma ish daftarlari stolda sochilib yotibdi, kitoblar ham betartib terib tashlangan, ochiq qolgan deraza tokchasiga chang qo‘nibdi, ertalab kofe ichgan bokalimni yuvmabdi ahmoq xotin...

Bir onda uyimiz juda betartib ko‘rinib ketdi ko‘zimga. Qanday qilib yig‘ishtirishga kirishib ketganimni o‘zim ham bilmay qoldim. Oshxonada ovqat pishirish bilan ovora xotinim xonaga kelib, ko‘rgan manzarasi qarshisida hayratdan og‘zi ochilib qoldi:

– Tinchlikmi, dadasi, nima qilyapsiz?

Unga e’tibor ham bermay, qo‘limdagi nam doka bilan stollarni artaverdim.

– Sizga nima bo‘ldi? Qachondan beri uy yig‘ishtiradigan bo‘lib qoldingiz? Qo‘ying, kechagina uyning har tarafini yog‘ tushsa yalagudek qilib qo‘ygandim-ku. Ha-a-a, endi tushundim, urushishga sabab topolmaganingizdan shunday qilyapsiz. O‘zi anchadan beri so‘kmaganingizga hayron bo‘lib yurgandim. Urishmoqchimisiz, a? Urishmoqchimisiz?

– E-e, ahmoq xotin, eshitmadingmi? Hokimlar uyma-uy kirib, odamlarning qanday yashayotganini tekshirib yurgan ekan. Biror kamchilik topsa, otning kallasidek jarimaga tortayotganmish. Tez bo‘l, hamma joyni supur, idish-tovoqlarni yuv, kiyimlarni dazmolla, eshik-derazalarni art.

– Voy, sizga aytdim-ku, kechagina hamma yoqni chinni-chiroq qilib qo‘ydim deb. Qo‘ying-e, qo‘lingizdagini! Xotini bor uyda erkak kishi ham chang tozalaydimi? Hokim bobo ham o‘z-o‘zidan birovning uyiga bostirib kirmasa kerak. Bunga haqqi yo‘q-ku.

– Ko‘p aql o‘rgatma sen, hokimlar birovdan ruxsat so‘rab o‘tiradimi? Tez aytganimni qil!

– Ovqat pishib qoldi, siz qorningizni to‘qlab oling, ungacha men besh daqiqada hamma yerni tartibga keltirib qo‘yaman.

– He-e, ovqatingniyam!..

Xotin har doimgidek masalaning jiddiyatini tushunmadi. O‘sha videoni unga ham ko‘rsatishga majbur bo‘ldim. Videoni ko‘rgach, uning ham ko‘ngliga g‘ulg‘ula tushdi.

– Rostdan ham, lop etib eshikdan kirib qolsa-ya...

Yeng shimarib, ikkovimiz ham uy yig‘ishtirishga qattiq kirishdik. Pollar takror-takror yuvildi, gilamlar qoqildi. Stollarning ustidan shkaflarning ostigacha artib chiqdik. Kitoblar bir tekis qilib alifbo tartibida javonga terildi. Kelinsalomda berilgan, lekin hali qutisidan chiqarib ishlatilmagan idish-tovoq, sanchqi-pichoqqacha hammasini qayta-qayta, ko‘pirtira-ko‘pirtira yuvdi xotin. Ko‘zimiz qiymaganidan hali ham asrab kelinayotgan eski-tuskilarni chiqindixonaga olib borib tashladim...

Yarim kechagacha tinmagan bo‘lsak ham, “uborka” bitmadi. Endi bo‘ldi deganda ko‘zga nimadir xunuk ko‘rinadi. Xonada mebellarni goh u tomonga, goh bu tomonga suramiz. Bir qarasak, pardaning rangi yoqmaydi, bir qarasak, oynaning bir burchagida dog‘ qolib ketgan bo‘ladi. Xuddi hokim bobo hozir kelib: “E-e, mallim, kuchuk ham sendan yaxshi yashaydi. Qara, manavi oynadagi dog‘ga”, deyotgandek bo‘laveradi. Yaxshiyam, chumchuqning inidek kvartirani ijaraga olgan ekanmiz. Videoga tushgan odamlarnikiga o‘xshash hovlimiz bo‘lsa, nima qilardik, bilmadim.

Oxiri ikkovimizning ham bo‘larimiz bo‘ldi. Uyqusizlikdan ko‘zlar yumilib ketaverdi. Hokim boboning bir uyga kirib, xonadon sohibasini hatto uxlagani uchun urishgani esga tushib, ikkilangandek bo‘lsak ham, tozalikni ertaga davom ettirishga qaror qildik. Xonada o‘zim yotdim, xotinni balkonga quvib soldim. Aytib bo‘ladimi, hokimlarning ishi ko‘p, kuni bilan vaqt topolmagani uchun yarim kechasi ham eshikni tepib kelib qolishi mumkin. Hokim bobo uyga kirganda xotin bilan uxlayotgan bo‘lsang, noqulay-da...

Havo issiq bo‘lishiga qaramasdan, kostyum-shimimni kiyib yotdim. Hokim boboning qarshisiga pijamada chiqib bo‘ladimi? Papkamni ham quchoqlab oldim, har ehtimolga qarshi.

Qani endi ko‘zga uyqu kelsa. Bir tomondan yotganimda kiyimlarimning g‘ijim bo‘lishini o‘ylayman, iloji boricha qimirlamaslikka harakat qilaman. Endi ko‘z ilinay deganda hokim bobo: “Mallim odamsan, galstuk taqsang o‘lasanmi?”, degandek bo‘laveradi. Turib galstukni ham taqaman. Galstuk qurg‘urni taqib uxlab bo‘ladimi? Nafasim qaytadi. Xullas, ertalabgacha uxlay olmadim.

Ertasi kuni kasal bo‘lganimni bahona qilib, maktabga ham bormadim. Uyning kam-ko‘stini tuzatishda davom etdik. Keliningizning qo‘lidan doka-yu supurgi tushmadi. Birdan videoda hokim boboning xonadon egasining muzlatkichini ochib qaragani, u yerdan ham bir dunyo kamchilik topib, do‘q urgani esga tushdi.

Yugurib borib muzlatkichni ochdim. Ichkarisi mo‘g‘ul qo‘shinlari talon-taroj qilgan shahardek: yuqigina qolgan tomat bankasi, to‘rt-beshta tuxum, so‘ligan bodring, kecha yeyilmay qolgan makaron sho‘rva, tamom. Bilasiz, 3-4 million so‘m oylikka kun ko‘radigan odammiz. Maosh olganda bir bozorlik qilamiz-u, oy bo‘yi shularni mayda chaynab yotamiz. Ha deganda muzlatkichni to‘ldirishga bizda imkon qayda, deysiz. Xuddi hozir hokim bobo uyga kiradi-yu, muzlatkichni ochib: “Muallim, odamga o‘xshab yashasang bo‘lmaydimi? Bu nima ahvol?!” deydigandek bo‘laverdi.



Kasal-pasal bo‘lib qolsak, ishlatarmiz deya tishning kavagida saqlab kelgan jamg‘armamizni olib bozorga otlandim. Tashqariga chiqsam, mahallada ham shu gap. Yaqinda ba’zi xonadonlarga hokim bobo kelib, jarimalar solib, ularning eshigiga “Uyatli xonadon” deb qog‘oz ham yopishtirib ketibdi. Hatto mahallamiz ham “Sharmandali mahalla” degan nom olibdi. Hamma sarosimada, hamma boshini qaysi devorga urishni bilmay yuribdi.

Dedi-dedilarga e’tibor bermay, bozorga borib, meva-cheva, go‘sht-u sariyog‘, chaqchuq, qand-qurs... ko‘zimga nima ilinsa, olaverdim. Pulning oxirgi tiyinini sarflaguncha bozordan chiqmadim. Inqillab-sinqillab bozorxaltalarni uyga olib kelguncha ham bo‘larim bo‘ldi. Xotinning xursand bo‘lishini ko‘rsangiz edi. Bu qadar narsani hayotida birinchi marta ko‘rishi sho‘rlikning. Hatto Yangi yil uchun ham bu qadar bozorlik qilmagan edim. Muzlatkichni og‘ziga qadar to‘ldirdik. O‘zim otini ham bilmaydigan allambalo tropik mevalar sig‘may ham qoldi. Cho‘ntakda bir mirisiz qolgan bo‘lsam ham, qilgan ishimdan mamnun edim. Mana endi, kim kelsa kelaversin, dedim ichimda.

Afsuski, bu xursandchilik uzoqqa cho‘zilmadi. Nafas rostlay deb, endi ko‘rpachaga oyoq uzatgandim, xayolimga yalt etib bir fikr keldi:

Hokim bobo uyga kelib, hamma yoqni tekshirsa, oxiri kelib muzlatkichni ochsa-yu: “Muallim, buncha narsa sotib olishga pulni qayerdan olding?!” desa, nima bo‘ladi? Boshimdan sovuq terlar quyildi. Bozorlikni qilishga qilib qo‘ydik. Sotuvchilar endi qaytarib olmaydi. Shuncha narsani tashlab yuborishga odamning ko‘zi qiyadimi!

Eh mayli, bo‘sh muzlatkichdan ko‘ra to‘lasi yaxshi. Hokim bobo so‘rab qolsa, kecha qishloqdan mehmonlar kelgandi, shular olib keldi, deyman-u qutulaman. Bunga ham ko‘nmasa, “Mening xonadonimdan o‘rnak olinglar, degansiz, sizga havas qilib, qo‘ldan kelgancha harakat qildik”, deyman, deya o‘zimni ovutdim.

Shunday xayollar bilan o‘zimni yeb o‘tirgan edim ham, keliningiz xonaga kirib keldi.

– Dadasi-ii-iii, – dedi erkalanib. Birdan yurak orqaga tortdi. Ayol kishi biroz so‘zni cho‘zi-iib aytdimi, demak, xarajat bor. Xarajatning katta-kichikligi o‘sha so‘zning qanchalik cho‘zib talaffuz qilinishiga bog‘liq.

– Nima deysan?

– Qo‘ldan kelgancha uyimizni tartibga keltirdik. Muzlatkichni ham to‘ldirdik. Tekshiruvga faqat hokim boboning o‘zi kelmaydi-ku, to‘g‘rimi? Haligi videoda ko‘rdim. Hokim bobo bilan Xotin-qizlar qo‘mitasidan, mahalladan ayol vakil ham bor edi. Bilasiz, ayollar yanada sinchkov bo‘ladi. Ayol vakillar uydan ham ko‘ra uy sohibasining o‘ziga qarashadi. Mening ahvolimni qarang, na bir tuzukroq ko‘ylagim, na ro‘molim bor. Na uzuk olib bergansiz, na sirg‘a. Hokim bilan kelgan ayollar aytmaydimi: “Kelin, ro‘zg‘orda tartibli tutarkansiz-u, lekin o‘zingizga hech qaramas ekansiz-da”, deb. Menga-ku hech narsa kerak emas, siz mulzam bo‘lib qolmang, deyman-da...

Yonib ketdim. Lekin bilasiz, baribir ayollar aytganini qildirmay qo‘ymaydi. Xohlang so‘king, xohlang dod-voy soling, foydasiz.

Keliningizning quvlik qilayotganini, paytdan foydalanib yaltir-yultirli bo‘lib olmoqchiligini bilib turibman. Bir tomondan, chindan ham birovning uyiga kirib, hatto yotoqxonasigacha burnini suqqan tekshiruvchilar keliningizning ko‘ylagi-yu ziragini bahona qilib jarimaga tortmaydi ham deyolmaysiz.

Tanishlardan qarz-qavola qilib, kelinigizning ham kam-ko‘stini to‘ldirdim. Lekin baribir ko‘nglim bezovta. Miyamda ming xil senariylar aylanaveradi. Hatto shu darajaga borib yetdiki, ichimdagi Men, ushalmagan orzularim, istaklarim ham miyamning darvozasini bir tepib kirib, hokim boboning ovozida menga do‘q urish, taftish qilishni boshladi:

“Muallim, sen ham odammisan, shu ham yashashmi?! Qara, boshqalarning uyi-joyi bor, sen esa hali ham ijarada turibsan! Umringning oxirigacha shu alfozda o‘tib ketasan. Qizing bo‘lsa, bu ahvolingda xonadoningga hech kim sovchilikka kelmaydi, o‘g‘ling bo‘lsa, hech kim qizini bermaydi.

3-4 million ham pulmi? Tuzukroq ish topsang bo‘lmaydimi? Hatto mardikorlar ham sendan ko‘p topadi. O‘qib nimani qotirding? Maktabni bitiriboq o‘zingni bozorga ursayding, kuchayib ketarding hozirgacha. Hech bo‘lmasa Rossiyaga ketish kerak edi, Rossiyaga!..

Bu dunyoga kelganing uchun, behuda yugurib-yelganing uchun, muallim bo‘lganing uchun, qayg‘uga to‘lganing uchun, oz maosh olganing uchun, Toshkentda qolganing uchun, chekishni tashlamaganing uchun, odamdek yashamaganing uchun...

Jarimaga tortish kerak seni – jarimaga!
Jarimaga tortish kerak seni – jarimaga!
Jarimaga tortish kerak seni – jarimaga!
Jarimaga tortish kerak seni – jarimaga!

Xullas, o‘sha videoni ko‘rganimdan beri yotsam ham, tursam ham, uyda ham, ko‘chada ham, ishda ham shu ahvol, aka. Jonga tegdi. Ortiq chidolmayman. Qachongacha kutamiz? Endi umrimning oxirigacha bu ovoz tinchlik bermasligi tayin. Hatto yuzga kirib, paymonam to‘lib o‘lsam, meni qabristonga eltib tashlasalar, u yoqda ham tinch yotmaydigandekman. Chunki hokimlar ham odam, ularning ham boradigan joyi go‘r. U yoqda ham hokim bobo kelib qolsa, nima qilaman, deb yotamanmi?!

Hokimiyatda biror tanishlaringiz bo‘lsa, yetkazing. Hokim bobo biznikiga kelsa kelsin. Kelmasa, kelmasligini aytsin.

**MUALLIM**



# HAR AVGUSTDA SHU BO‘LAR TAKROR...

***Kalendarda hamma oylarning o‘z o‘rni bor. Lekin avgustning fayzi boshqacha. Jazirama yozning janozasi o‘qiladi, kuzning kindigi kesiladi, havoning sal bo‘lsada salqinlagani seziladi. Uzumlar uziladi, polizlarda pishiqchilik, qora xalqning kissasiga pul kiradi, qo‘y-mollar semiradi, itlar har kuni suyak kemiradi. Chunki har ikki xonadonning birida to‘y, so‘yiladi qo‘y. Universitet imtihonlarining javobi e’lon qilinadi. Kim bilimli, kim bilimsiz bilinadi. Grantga kirganlar yayraydi. Kontraktchilar ho‘kizini bozorga haydaydi. O‘qishga kirolmagan bechoralar ko‘zyosh to‘kadi, otasi har kuni uch mahal so‘kadi... Avgust manzarasini to‘liq chizay desa musavvirga rang, hofizga jarang yetmaydi. Bizga o‘xshab so‘z bilan tasvirlamoqchi bo‘lganlar ham, qog‘ozga termulib, nima qilishini bilmay garang bo‘ladi.***

Bu oyda barchaning nazaridan chetda bir hodisa sodir bo‘ladiki, mevalarning pishgani, cho‘ntaklarning shishgani, to‘ylar, so‘yilgan qo‘ylar, o‘qishga kirgan o‘g‘il-qizlar, bozorga yetaklangan ho‘kizlar hech narsa emas. Aynan o‘sha hodisa sabab kalendarga qaramasangiz ham avgust oyida yashayotganingizni bemalol bilib ololasiz. Bu qanday hodisa deysizmi? Yurtimiz maktablarida dars taqsimoti boshlanadi.

Aynan shu oyda jamiyatimizda o‘rnak tashkil qiladigan, og‘ir-bosiq, odobli, aqlli, qo‘y og‘zidan cho‘p olmaydigan o‘qituvchilar butunlay o‘zgarib qoladi. Bu oyda ertalabdan maktabda otlangan o‘qituvchilarga e’tibor qilsangiz, yaqqol sezasiz. Oldidan chiqib qolsangiz, salomingizga alik ham olmaydi, ko‘zlari asabiylikdan pirpirab, har qadamini jerkib-jerkib bosadi. Xuddi ichiga qamalib qolgan alamini yer sharini tepkilab chiqarishni istayotgandek. Erkak o‘qituvchilar bo‘lar-bo‘lmasga xotinini so‘kaveradi, ayol o‘qituvchilar erini qarg‘aydi. Maktab foyesida qiy-chuv, baqir-chaqir. Tarix o‘qituvchilari tarixni kovlab janjal chiqaradi, fizika o‘qituvchilari bir-birini do‘pposlab, yerning tortishish qonunini amaliyotda sinab ko‘rishadi. Boshlang‘ich sinf muallimlari bir-birining boshini yoradi, matematikachilar bir-birining hisob-kitobini chiqarib tashlaydi. Eng odobli va bosiq ona tilchilari onadan so‘kadi bir-birini. Bo‘ladi janjal, bo‘ladi katta urush.

Pul nimalar qilmaydi, hammasining qozoni shu maktabning orqasidan qaynaydi-da. Dars soati kam bo‘lsa, oylik ham kam chiqadi. Bu oyda og‘ir-bosiqlik qilib, o‘zini urmagan o‘qituvchi qolgan 11 oy davomida qo‘lini burniga tiqib qoladi. Shuning uchun ham avgust oyida o‘qituvchilar ilm-u irfonni, aql-u odobni bir chekkaga yig‘ishtirib, ibtidoiy instinktlari bilan harakatga o‘tishadi. Bu oyda ularning tomirida minglab yillar avval Afrika savannalarida o‘lja orqasidan quvgan ajdodlarining qoni jo‘sh uradi.

Qiyin, qiyin kimga qiyin? Direktor bilan zavuchga qiyin. 11 oy davomida yegan-ichgani burnidan buloq bo‘lib keladi, tug‘ilganiga ming pushaymon bo‘ladi. Ekzistensialist faylasuflar kabi hayotning ma’nosini izlab qoladi o‘z-o‘zidan: “Nega yashayapman? Men Sizifman, hayot xarsangtosh, dumalatgan bilan biror foyda yo‘q”...

Direktor bilan zavuch xonalari eshigini ichkaridan qulflab, kalit tirqishi orqali mulozot qiladi qolgan o‘qituvchilar bilan. Nima qilsin, jon shirin, bo‘lmasa, bu taloto‘p ichida o‘lib-netib ketishi hech gap emas.

Ur-sur, baqir-chaqirdan bir foyda chiqmasa, g‘arbiy front ochiladi. Har o‘qituvchi oladi qo‘liga qog‘oz-qalam, boshlaydi “yozg‘uvchilik”ni. Direktorning ustidan yozilsa, zavuchning tagiga suv quyiladi. Bunga ham ko‘ngli to‘lmagach, boshlaydi bir-birlarining ustidan yozishni, zavxozdan tortib qorovulgacha, direktorga uzoqroq qarindosh bo‘lgan farrosh xotin ham o‘z nasibasini oladi. Arizalar yog‘iladi markazga, sudga, boshqarmaga, hokimiyatga, ulardan bir naf chiqmasa, viloyatdagi kattakonlarga, ular ham bo‘lmasa, Toshkentga kattakonlarning kattakoniga(yo‘l-yo‘lakay arizaga manfiy javob bergan tuman va viloyatdagi rahbarlar ustidan ham yoziladi). Xullas, BMTgacha yetib boradi arizalar. Direktor va zavuch bechora ishdan ketadi. Ketmasa ham markazga qatnayverib botinkasi yirtiladi, kelgan tekshiruvchilarga aroq tashib tinkasi quriydi.

Har avgustda shu bo‘lar takror, har avgust ham shunday o‘tadi. U bo‘ladi, bu bo‘ladi, hamma o‘qituvchining bir-biridan ko‘ngli qoladi, lekin sentabr boshlangach hammasi o‘z nasibasi bo‘lgan dars soatiga ko‘nib, avvalgi odobli, aqlli, og‘ir-bosiq, jamiyatga o‘rnak bo‘ladigan odamlarga aylanib, o‘quvchilarni qarshi olishadi. Qolgan butun g‘azablarini keyingi avgustga asrab qo‘yishadi.

Hurmatli mushtariylar, shu kunlarda maktabdagi mojarolar avj pallasida. Maktab, o‘qituvchilar millat kelajagini tarbiyalovchi, jamiyatning lokomotivi hisoblanadi. Qaysi kasb va tabaqadan bo‘lishimizdan qat’i nazar, biz ham bu masalaga bee’tibor bo‘lmasligimiz kerak. Dars taqsimoti oyini nisbatan betalofatroq, kam qurbon bilan o‘tkazishga barchamiz o‘z hissamizni qo‘shishimiz lozim. Shu maqsadda ba’zi takliflarimni ilgari surmoqchiman:

1. Mahalla raislari, xotin-qizlar qo‘mitasi vakillari birgalikda o‘qituvchilarning oilalarida tushuntirish ishlari olib borsin. O‘qituvchining oila a’zolari avgust oyida iloji boricha muallim bilan yaxshi muomala qilsin. Jahli chiqqan payti ko‘ziga ko‘rinmasin.
2. Xoh qo‘shnisi, xoh qarindoshidir, barchaning maktabda ishlaydigan tanishi bo‘lsa kerak. Shu kunlarda muallim tanishi borlar ularni ziyorat etib, ko‘nglini ko‘taradigan, ijobiy so‘zlar aytsin, latifalar so‘zlab bersin, o‘qituvchilarning sentabrgacha jamiyatga adaptatsiya bo‘lishiga ko‘maklashsin.
3. Mahallalarda “Betaraflar” nomli ko‘ngillilar otryadlari tuzilib, maktablarga biriktirilsin. Bu otryadlar navbatchilik asosida o‘qituvchilarni ajratishga bor kuch-g‘ayratlarini sarf etsin.
4. Avgust oyigacha “Biz dars talashishlariga qarshimiz” shiori ostida miting va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazaylik.
5. “Odam bo‘ling” nomli xayriya jamg‘armasi tashkil etaylik. Hamma ko‘ngildan oyiga 4-5 so‘m bersin. Yig‘ilgan pullarga yurtimizdagi barcha maktablar validol, tinchlantiruvchi dorilar va yod, spirt, bint kabi birinchi yordam vositalari bilan ta’minlansin (markazga yuboriladigan arizalar, direktorning bordi-keldi xarajatlari ham jamg‘arma hisobidan qoplansin).
6. IIV, Mudofaa vazirliklari, Milliy gvardiya va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar direktor va zavuchning xavfsizligini saqlashga amaliy yordam ko‘rsatsin.

Mening takliflarim hozircha shular, sizda ham avgust oyini betalofat o‘tkazishga doir biror tashabbus bo‘lsa, ularni chiroyli qilib qog‘ozga tushirib “Ma’rifat” gazetasiga yuboring.

Dars taqsimoti oyini bir amallab o‘tkazib olsak, keyin hammasi yaxshi bo‘ladi. Barchaga omad, kuch-g‘ayrat tilayman! To‘r ko‘z tugal, eson-omon sentabrga yetib olaylik!

**BETARAF**

E'tirof

# Ma'rifatli yurtning kelajagi porloq bo'ladi



Zarif RO'ZIQULOV,
Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi bosh hisobchisi

Mamlakatimiz Prezidenti o'z ma'ruzalaridan birida "Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan", deya ta'kidlagan edi. Ma'lumki, bugun dunyoda keskin kurash va raqobat hukm surmoqda, manfaatlar to'qnashuvi kuchaymoqda.

Globallashuv jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Milliy o'zlik va ma'naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora ortmoqda. Faqat o'zini o'ylash, mehnat va oilaga yengil qarash, iste'molchilik kayfiyati turli yo'llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayapti.

Davlatlar o'rtasida kechayotgan urushlar natijasida halok bo'layotgan insonlar, ota-onasiz, boshpanasiz qolayotgan bolalar, terrorizm, ekstremizm, transmilliy va kiberjinoyatchilik, odam savdosi, narkotrafik kabi tahdidlar xavfi oshib bormoqda. Ba'zi hududlarda atayin beqarorlik yuzaga keltirilib, norozilik kayfiyati avj oldirilmoqda. Bunday tahlikali vaziyatda hushyor va ogoh bo'lib, xalqimizning tinchligi, mamlakatimiz manfaatlarini o'ylab yashash zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

Darhaqiqat, odamzod yashar ekan, davr charxpalagi aylanar ekan rivojlanish, taraqqiyot ham bo'ladi. Agar inson fikrlash, orzu qilishdan to'xtasa taraqqiyot bo'lmasligi mumkin.

Yurtboshimiz rahbarligida Yangi O'zbekiston yoshlari ma'naviyatini yuksaltirish borasida qilinayotgan misli ko'rilmagan ishlarni birma-bir sanab o'tishning iloji yo'q. Eng muhimi, bir fikrga diqqatingizni jalb qilishni istardim. Ommaviy axborot vositalari orqali dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalarni ko'zdan kechirib borayotgandirsiz. Qaysidir yurtda tabiiy ofat, qaysidir yurtda iqtisodiy muammo, boshqa bir davlatda yillab davom etayotgan urush bo'lsa, yana birida ma'naviy inqiroz. Shunday tahlikali zamonda bizning yurtimizda osmonga bo'y cho'zayotgan muhtasham binolar, turarjoy maskanlari, ta'lim maskanlari, ijtimoiy sohaga doir binolar qad ko'tarmoqda. Joriy yilda azim Toshkentda qad rastlagan Islom svilizatsiyasi markazining bunyod etilishi, Samarqandda Imom al-Buxoriy me'moriy majmuasi qaytadan rekonstruksiya qilinishi, shu ulug' majmualarga dunyoning turli mamlakatlaridan turistlarning tashrifi, dunyo miqyosida o'tkaziladigan simpozium kabi yirik tadbirlarning o'tkazilayotgani fikrimizning dalili bo'la oladi.

Biz taraqqiy etgan sari ajdodlarimiz xotirasiga murojaat qilaveramiz. Shu narsa ayonki, zaminimiz dunyodagi eng ko'p alloma-yu fozillar yetishib chiqqan yurtlardan biri hisoblanadi. Asrlar osha qanchadan qancha ixtirolar qilinmoqda. Biroq hamon dunyo olimlari Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek, Navoiyga murojaat qilib kelmoqda. Chunki zamonlar o'zgarsa-da, bobolarimiz, momolarimiz qoldirgan meroslar eskirmaydi. Navoiy asarlarini o'qisangiz aynan bugungi kunga ham daxldorligidan hayratlanasiz. Yaqinda bir tanishim umra safari tafsilotlari haqida so'zlarkan, bir ajnabiyga "O'zbekistondanmiz, al-Buxoriy yurtidan deganimda, shunchalar iltifot ko'rsatdiki, uning bobomizga bo'lgan ixlosini ko'rib avliyolar yurtida tug'ilganimga shukronalar aytdim", dedi. Bu so'zlarni eshitib jannatmakon diyorimizdan faxrlanmay bo'ladimi? Biroq faxrlanmoqning o'zigina kamlik qiladi. Mana shu ajdodlarga, oltin tuproqqa loyiq avlodlar bo'lib yashashni bilishimiz zarurdir. Yurtboshimiz zaminimizda yetishib chiqqan alloma borki, xoki poyini, xotirasini ziyoratgohga aylantirishni ixtiyor etganligining boisi avlodlar ulardan o'rnak olib yashashini istaydi. Davlat kelajagini mustahkam poydevor ustiga qurish, fuqarolari jahonda o'z o'rniga ega bo'lishini istagan rahbargina ana shunday yo'l tutadi. Zero, ma'naviyatga tayangan inson ikki dunyo saodatiga erishadi. Umummilliy qarashlar tizimini hayot dasturiga aylantirgan millat abadulabad o'zining kimligini anglab, o'zgalarga ham anglatib yashaydi. Aqli raso, ma'rifatli inson hamma davrlarda ham, har qanday vaziyatda ham o'z insoniyligini yo'qotmaydi. Xalqimizda "Ko'p o'qigan – ko'p bilar", degan maqol bor. Bu ham dono ajdodlarimizning ibratli so'zlaridir.

Mustaqilligimizning 35 yilligi "Yagona Vatan, yagona xalq bo'lib, yangi hayot va kelajak yaratamiz" degan bosh g'oya asosida nishonlanayotgan joriy yilda har bir mahalla, tashkilot, oilada bayramni munosib kutib olish borasida sa'y-harakatlar olib borilmoqda. Yosh avlod erkin va to'la-to'kis ulg'ayayotgan xonadonlar tinchligi jamiyat, yurt tinchligi demakdir.

Yangi loyiha

# Zamonaviy kutubxonachi kitobxon didini o'zgartira oladimi?

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan tashkil etilgan "Yosh kutubxonachilar" VI Respublika ilmiy-amaliy forumi doirasida "Innovatsion loyihalar" tanlovi o'tkazildi va g'oliblar aniqlandi. Mazkur anjumandan ko'zlangan maqsad kutubxonalarda an'anaviy kitoblar bilan birga raqamli resurslar va elektron ma'lumotlar bazalarini tizimlashtirishga katta ahamiyat berish, kutubxona mutaxassislarining mediasavodxonlik va zamonaviy dasturiy ta'minotlar bilan ishlash ko'nikmalarini takomillashtirishdir.

Kutubxonachilik sohasi bir qarashda cho'zilib ketgan javonlardan kitobxonga o'zi sevgan asarni topib berishdek juda oson tuyuladi. Bu kasb egalari shu qadar jo'n va sodda ish bilan shug'ullanishadimi?

To'g'ri, agar tajribali kutubxonachining kun tartibini ko'z oldingizga keltirsangiz, chindan ham shundaymikan?!

– Yo'q, aslo! Bugungi kutubxonachi yoshlarning shiddat bilan o'zgarib borayotgan qiziqishlari va axborotdan foydalanish odatlariga peshvoz chiqib, zakovatini rivojlantirib borishi lozim. Chunki sun'iy intellekt barcha sohalarni qamrab olmoqda. Shunday ekan davr kutubxonachidan an'anaviy xizmat turlari bilan cheklanib qolmasdan, yangi va zamonaviy usullarni joriy etishni talab qilmoqda.

Ana shu kuzatishlarim meni kutubxonachilik sohasiga yangicha yondashuv olib kiradigan loyiha ishlab chiqishga undadi. Natijada "ZiyoTarmoq" nomli innovatsion loyiha g'oyasi yuzaga keldi.

29–31-iyul kunlari Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi tomonidan tashkil etilgan "Yosh kutubxonachilar" VI Respublika ilmiy-amaliy forumi aynan ana shunday zamonaviy kutubxonachilarning bellashuvi markazi bo'ldi.

Forumda qatnashish men uchun katta tajriba maktabi bo'ldi, – deydi Toshkent viloyati "Turon" axborot-kutubxona markazi yetakchi mutaxassisi Zebo Ochilova. – Unda kutubxonachilik sohasida faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislar bilan yaqindan tanishdim, ularning faoliyati va innovatsion tashabbuslarini kuzatdim. Shuningdek, tajribali mutaxassislarning fikr va tavsiyalarini tinglash imkoniyatiga ega bo'ldim. Forum doirasida o'tkazilgan "Innovatsion loyihalar tanlovi"da o'zimning "ZiyoTarmoq" loyihamni taqdim etdim. Loyihani tayyorlash davomida uning maqsadi, vazifalari, ishlash tartibi, foydalanuvchilarga beradigan imkoniyatlari, amalga oshirish bosqichlari va kutilayotgan natijalarini batafsil ishlab chiqdim. "ZiyoTarmoq" loyihasining asosiy maqsadi kutubxonalar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, kutubxonachilar ishini yengillashtirish va kitobxonlarning ilmiy hamda badiiy adabiyotlarga bo'lgan qiziqishini zamonaviy vositalar orqali oshirishdan iborat.

Mazkur forum yosh kutubxonachilarning bilim va tajribasini oshirish, ularning yangi g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda turli hududlardan kelgan mutaxassislar o'rtasida tajriba almashish uchun muhim maydon bo'ldi.

Forumda taqdim etilgan "ZiyoTarmoq" loyihasi kitobxonlik missiyalari, tajriba ballari, virtual nishonlar, daraja va rag'batlantirish tizimini o'z ichiga olar ekan, unda foydalanuvchilar kitob o'qish, ilmiy maqolalar bilan tanishish, asarlar haqida sharh yozish yoki kutubxona tadbirlarida ishtirok etish kabi topshiriqlarni bajaradi. Ularning faoliyati tajriba ballari orqali baholanadi va erishgan natijalariga qarab maxsus virtual nishonlar beriladi. Biroq "ZiyoTarmoq" faqat kitobxonlarga ball beradigan tizim emas. Loyiha kutubxonachining faoliyatini yengillashtirishga ham xizmat qiladi. Platforma orqali foydalanuvchilar faolligi, adabiyotlarga bo'lgan talab va elektron resurslardan foydalanish holatini tahlil qilish mumkin bo'ladi. Shu asosda kutubxona qaysi yo'nalishdagi adabiyotlarga talab yuqori ekanini aniqlab, o'z fondini haqiqiy ehtiyoj asosida rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Loyihaning yana bir muhim jihati mavjud elektron kataloglar va ta'lim platformalari bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatidir. "ZiyoTarmoq" mavjud tizimlarning o'rnini egallashni emas, balki ularga qo'shimcha ravishda kitobxon faolligi, shaxsiy tavsiyalar va kutubxona uchun tahliliy imkoniyatlarni taqdim etishni nazarda tutadi.

– Loyihamni mutaxassislar va forum ishtirokchilari oldida taqdim etish men uchun mas'uliyatli jarayon bo'ldi, – deya o'z taassurotlarini bildirishda davom etadi Zebo Ochilova. – Har bir fikrimni aniq tushuntirishga, loyihaning dolzarbligi va amaliy ahamiyatini ko'rsatishga harakat qildim. Taqdimot davomida berilgan savollar loyihamni yanada chuqurroq tahlil qilishim va uning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini aniqlashimga yordam berdi.

Tanlov yakunlariga ko'ra, "ZiyoTarmoq" loyihasi yuqori baholanib, "Innovatsion loyihalar tanlovi" yo'nalishida "Turon" AKM yetakchi mutaxassisi Zebo Ochilova faxrli birinchi o'rin sohibiga aylandi. Ikkinchi va uchinchi o'rinlar Xorazm viloyati soha vakillari Dostonbek Obloquliyev va Abror Ahmedovga, forum Gran prisi esa Islom sivilizatsiyasi markazi kutubxonasi direktori Ravshan Qodirovga nasib etdi.

Darhaqiqat, endilikda kutubxonachilar ham milliy adabiyotmizni jahonga tanitish va elektron shaklga keltirish hamda ularni kitobxonlarga tez yetkazib berish borasida tinmay izlanishlar olib bormoqda. O'ylaymizki, mazkur forumda o'z loyihalari bilan qatnashgan yosh, tajribali kutubxonachilar kelgusida yangi loyihalari bilan zamonaviy kitobxon didini yuksaltirish va ezgu maqsadlarga yo'naltirishda navqiron kuch sifatida namuna bo'ladilar.

**Davron RAJAB**

# Jovli devonaning qamchisi

Ancha yillar avval Qamashining adirlarga tutashgan Qo‘shtamg‘ali qishlog‘ida umrini muallimlik kasbiga baxshida etgan va o‘ttiz yil maktabda direktor bo‘lib ishlagan Bobonazar Safarov degan ko‘pni ko‘rgan, bilimdon, pir-u badavlat kishi bilan suhbat qurgandim. Domlaning yoshi sakson uchdan oshgan bo‘lsa-da, ruhi tetik, xotirasi tiniq edi.

– Nafaqaga chiqib bekorchiga aylangach, – dedi Bobonazar muallim kulimsirab, – ancha yillardan beri ko‘ngilda niyat qilgan ishlarni amalga oshirishga kirishdim. Ya’ni ajdodlarimiz, qishloqdoshlarim haqida kitob yozishga jazm qildim. Avvaliga ishim yaxshi ketayotgandi, afsus, keksalik pand berdi, ko‘zlarim xiralashib, yozishga va o‘qishga qiynalib qoldim. Oxiri bolalikdan badiiyatga ixlosi baland bo‘lgan o‘qituvchi shogirdim Eshto‘xtar Elmurodovga yozganlarimni, “O‘zing oxiriga yetkaz!” deb topshirdim. Endigi ermagimiz yostiqqa yonboshlab olib, o‘g‘illarga, nabiralarga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish va chechangizga xushomad qilmoq bo‘lib qoldi-da, og‘ayni...

Xo‘sh, endi bilganimni, eshitganlarimni aytay. Qishlog‘imiz eli o‘zbekning qo‘ng‘irot-saroy urug‘iga mansub bo‘lib, ajdodlarimiz azaldan chorvachilik, asosan qo‘ychilik bilan mashg‘ul bo‘lib kelgan. Badavlat, saxovatli bo‘lishgan. Uylaridan mehmon arimagan. Ayniqsa, ona tomondan bobom Jovli devonani keksalar hamon afsona, rivoyat aytganday hayratlanib so‘zlab yurishadi va Devona bobo deb ta’riflashgan. Bu so‘z es-hushidan ayrilgan degan ma’no anglatishini bilasiz, aslida esa bu so‘z bilimdon, ilohiy kuchga ega degan nisbatni ham anglatgan. Axir ulug‘ shoir Mashrabni ham devona deb atashgan emasmi?

Jovli bobom ham Buxorodagi madrasada tahsil olgan, ilmli kishi bo‘lgan. Tahsilni tugatib qishlog‘iga qaytgan, uylangan. Qo‘ychilik bilan mashg‘ul bo‘lib, tadbirkorligi va ishbilarmonligi tufayli badavlat odamga aylangan. Qo‘ylarni boqish uchun cho‘pon-cho‘liqlar yollagan. O‘zi esa tabiblik bilan ham shug‘ullanib, odamlarni turli yara-chaqalardan forig‘ qilgan, og‘ir xastalarni dorivor o‘simliklar bilan birga, ruhiy ta’sir o‘tkazish usulida ham davolagan. Tez orada uning dovrug‘i olis-olislarga yetib borgan. Hatto qo‘shni Afg‘onistondan bozorga kelgan savdogar va tujjorlar ham uyida mehmon bo‘lib, qaytar chog‘ida bobom ularning yelkasiga sehrli qamchisi bilan urib qo‘ygan. Albatta, qamchida ham ilohiy nimadir bo‘lgan. Qamchi zarbidan beli, oyoq-qo‘llari og‘riganlar shifo topishgan.

To‘ylarda, sayillarda Jovli bobo davraga chiqib hayratlanarli tomoshalar ko‘rsatgan. Yonib turgan gulxan alangasini ko‘ylagi ichidan o‘tkazib, iyagi tagidan chiqargan. Na ko‘ylagi, na badani, na soqoli kuygan. Yoki shaqillab qaynab turgan qumg‘ondagi suvni olib tahorat olgan. Bunday g‘ayrioddiy tomoshalarni ko‘rganlar qoyil qolishgan. Bobomning sirli qamchisidan davo topish uchun oddiy odamlardan tashqari eshon va sayidlar ham uning dargohiga tez-tez kelib turishgan. U kishi bashoratchi ham bo‘lgan. Hatto o‘zining qachon qazo etishini ham yaqinlariga aytib bergan ekan. Bobomizning beshta qizi bo‘lgan, lekin hech qaysi farzandiga sehrli ilmini o‘rgatmagan. “Qo‘yinglar, menga havas qilmanglar, sizlar o‘ylagandek bu ilm oson emas, buni o‘rganmoqqa bardoshlaring yetmaydi” deb aytar ekan.

Chamalab ko‘rsam Jovli bobomizning yashab o‘tganiga ham ikki asr bo‘libdi. Bugun u kishining nabiralari orasidan olimlar, o‘qituvchilar, vrachlar, jurnalist va yozuvchilar, tadbirkorlar yetishib chiqdi. Bobomizning sehrli qamchisi esa tabarruk meros sifatida avaylab saqlanmoqda. Balki bir kun kelib unga munosib voris topilar...


Bobonazar Safarov

* * *

– Shu mo‘jazgina qishloqda tug‘ilib voyaga yetdim. Bolalikdan kitobga, ayniqsa, badiiy adabiyotga ixlosim zo‘r edi, – deydi Qo‘shtamg‘ali qishlog‘ida yashab muallimlik qilayotgan suhbatdoshim, o‘sha yuqorida ta’rif etilgan Bobonazar domlaning shogirdi Eshto‘xtar Elmurodov.


Eshto‘xtar Elmurodov

– Eng sevimli kitobim “Graf Monte Kristo” romani edi. Adashmasam, bu kitobni o‘n-o‘n besh marta o‘qib chiqqanman. Maktabni tugatib, Samarqand davlat dorulfununining fransuz tili fakultetiga o‘qishga kirdim.

Til bahona men uchun G‘arb adabiyotini o‘rganishga tuynuk ochildi. Xullas, talabalik yillari shu taxlit o‘tdi. O‘qishni tugatib bir necha yil tuman yoshlar qo‘mitasida ishladim. Lekin negadir ishimdan ko‘nglim to‘lmasdi. Oxiri qishloqqa, maktabga qaytdim. Qaysidir yili meni poytaxtga malaka oshirish kursiga yuborishdi. Bir kuni institutga Fransiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi xodimi janob Jorj Lufuvr kelib biz bilan suhbatlashdi. Suhbat jarayoniga men ham aralashdim. U kishi mening ismi-sharifimni va yashash manzilimni yozib oldi. Oradan bir necha oy o‘tib menga Fransiyaning Ruayan shahrida bo‘ladigan muallimlarning xalqaro anjumaniga qatnashish uchun taklifnoma keldi. Xalq ta’limi bo‘limining ko‘magi bilan Fransiyaga bordim. Meni ayniqsa, fransuz xalqining ochiq-ko‘ngilligi va ilmsevarligi hayratga soldi. Ular farzandlarining bilim olishlari uchun mablag‘ni ham, vaqtni ham ayamas ekan. Har bir ota-ona maktab bilan doimiy aloqada bo‘ladi. Fransuz o‘quvchisi hech qachon o‘qituvchisiga hadik bilan qaramaydi, balki do‘sti va sirdoshiday muomala qiladi. Hatto, ota-onasiga aytmagan sirlarini ham tortinmasdan muallimiga aytadi. Muallim faqat maktabga kelib ketadigan odam emas, balki o‘quvchining hamfikr hamrohiga aylangan. O‘qituvchining moddiy ta’minoti muammosi allaqachon hal bo‘lgan. O‘qituvchilik bu yurtda eng noyob va obro‘li kasb sanalar ekan.

Uyga qaytib ishlarimni qayta ko‘rib chiqdim. Darslarimni ko‘proq magnitofon orqali, ko‘rgazmalar asosida o‘ta boshladim. Ikkinchi va to‘rtinchi sinflarda fransuz tili chuqur o‘rgatiladigan guruhlar tashkil etdim. Oradan to‘rt oy o‘tib Turkiyaning Anqara shahrida tashkil etilgan xalqaro seminarga bordim. Bilasiz, Turkiya G‘arb bilan Sharqni bog‘laydigan g‘aroyib mamlakat. Turmush tarzi xuddi o‘zimizga o‘xshashligini aytmaysizmi! Ularning o‘z ona tiliga bo‘lgan mehr va e’zozi tahsinga loyiq. Yurtning har bir ziyolisi bemalol uch-to‘rt xorijiy tilda so‘zlasha oladi.

Xalqimiz bekorga “yurgan daryo, o‘tirgan bo‘yra” deb aytmagan ekan. Xorij safarlari menga o‘z ishimga tanqidiy qarashni o‘rgatdi. Qoniqmaslik va tinib-tinchimaslikni o‘rgandim. Mehnatlarim samarasi bo‘lib o‘quvchilarim tuman, viloyat, respublika tanlovlarida g‘oliblikni qo‘lga kiritdi. Eshto‘xtar muallim bir zum tin oldi. Suhbatga “Qamashi” gazetasi muharriri, adib Temirpo‘lat Tillayev aralashdi.

– Eshto‘xtar muallim jonkuyar yigit. Oliy toifali mutaxassis. Yana katta oilaning boshlig‘i, sakkiz farzandning mehribon otasidir. Qolaversa, u qishloqdoshlari va el uchun katta va mashaqqatli ishni amalga oshirdi. “Qo‘shtamg‘ali qishlog‘i tarixi” kitobini yozib nashr ettirdi. Qamashi tumani madhiyasining muallifi. Yaxshigina shoir. Mehnatlari bois “Xalq ta’limi a’lochisi” ko‘krak nishoni va “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan. Ha, mustaqillik bergan imkoniyatlar tufayli, o‘qituvchilarimiz hatto chet ellarga ham borishmoqda. Eshto‘xtar Elmurodovga o‘xshash dunyo kezgan, dunyo ko‘rgan muallimlarimiz ko‘payaversin.

Darvoqe, so‘zimiz Jovli devonaning sirli qamchisi haqida edi. Chunki yuqorida nomi tilga olingan mardumlarning yelkasida o‘sha qamchining izi qolgani bois, shu darajaga erishgan, deydi bilgichlar. Sizni bilmadim-u, ammo mening bu ishoraga ishongim keldi...

O‘rolboy QOBIL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Elda aziz

Dunyoda kasblar ko‘p. Ammo inson ularning qay birini tanlamasin, o‘sha kasbning mashaqqatlariga dosh bera olsa, hurmat va baraka topadi. Rajab aka qariyb 30 yil shofyorlik qilgan. Turmush o‘rtog‘i Zaynab momo bilan to‘rt o‘g‘ilni oq yuvib, oq tarab voyaga yetkazgan.

# Rajab shofyorning murabbiy farzandlari

– Shofyorlik texnika sirlarini bilishni yaxshigina talab qiladi, – deydi suhbatdoshim. Qolaversa, inson kasbiga mehr qo‘yishi lozim. Farzandlarim birin-ketin voyaga yetishdi. Ko‘nglimda ularni o‘qitish, oliy ma’lumotli qilish orzusi sira tinchlik bermagan.

To‘ng‘ich o‘g‘lim Farhodjon Nurotada maktabni tugallab, Samarqandga yo‘l oldi. 2004-yili Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining matematika fakulteti talabasi bo‘ldi. Hozir Samarqand shahridagi 25-maktab direktori. Taqdirni qarangki, kelinim Munisaxon ham pedagog. Navoiy davlat pedagogika institutining matematika fakultetini bitirgan.

Keyingi o‘g‘lim Sunnatillo tadbirkor bo‘ldi. Nusratillo esa *Toshkent* davlat *texnika universiteti*ning konchilik fakultetida o‘qigan. Uning ham turmush o‘rtog‘i o‘qituvchi. Kelinim Feruza Navoiy davlat pedagogika institutini, kenjamiz Hayotjonning turmush o‘rtog‘i Gulnoza esa Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universitetini bitirgan.

Hayotjon esa Samarqand davlat universitetining san’atshunoslik fakultetini tugatgan. Aslida san’at nazariyotchisi, ham murabbiy, desak adashmaymiz.

Agar oilamiz jam bo‘lsa, shuncha pedagogni ko‘rib havasim keladi. Muallimlik juda sharafli kasb.

## CHEMPION NEVARALAR

Murabbiy uyda ham murabbiydir, – deydi suhbatdoshim Farhod aka G‘afforov. – To‘rt nafar o‘g‘ilning otasimiz. Kattasi Javohir 7-sinfda o‘qiydi. Bolaligidan sport shaydosi. Qo‘l jangi bo‘yicha shahar, viloyat va respublika bellashuvlarida ishtirok etib, nufuzli o‘rinlarni qo‘lga kiritgan.

Izzatillo esa 5-sinf bo‘lishiga qaramasdan, qo‘l jangidan faol. Keyingi farzandlarim Sohibqiron va Boburmirzo hali maktab yoshiga yetmadi. O‘qituvchining uydagi vazifasi yanada zalvorli. Boisi, ota-ona sifatida farzandlarining baholari, o‘zlashtirishi, yurish-turishini nazorat qilishi lozim. Qolaversa, turmush o‘rtog‘im ham o‘qituvchi bo‘lgani bois uyimizda ma’naviyat va kitob mutolaasi asosiy mashg‘ulotdir.

## RAJAB AKANING O‘GITLARI

– Kasb insonni elga tanitadi, – deydi Rajab aka. – Halol rizq bilan farzandlarimizni kamolotga yetaklay olamiz. Bola ota-onasining saboqlari bilan voyaga yetsa, murabbiyning mashaqqatlaridan ilm va tarbiya mukammalligiga erishadi. Ilm hech kim tortib ololmaydigan boylik aslida.

Nurota shoir, baxshi, olimlar yurti. Har gal bu yurtga borsam, qishloqdoshlarim shaharga borib olimlik martabasiga erishgan murabbiylarni ko‘p so‘rashadi. O‘shanda biz qishloqda shahardan kelgan oliy o‘quv yurti vakillarini “domla” derdik. O‘zimiz ham ularday bo‘lishga intilardik.

Qaysi kasbni egallamoqchi bo‘lsangiz, unga ham zehn kerak. Ilm olish esa sharafli va iymonli bo‘lish shartlaridan biridir. Bu haqiqatni his qilib yashashimiz lozim.

Munisa SAFAROVA,
Samarqand shahridagi 25-maktab o‘qituvchisi

# Yo‘qsullar alifbosi



Xudoyberdi KOMILOV,
siyosiy sharhlovchi

## NIMA BO‘LSAYAM, UY-JOYIM EDI...

2018-yili “Ma’rifat” gazetasida lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosini himoya qilib yozgan maqolamdan keyin ko‘pgina gazetxonlarda mening konservativ ko‘rinishdagi qiyofam shakllandi. Undan keyingi chiqishlarimdan so‘ng esa ko‘pchilik meni alifbo islohotiga qarshi, yangiliklardan qo‘rqadigan odam deb o‘ylamoqda. Tan olib aytishim mumkinki, haqiqatan ham konservatorman. Masalan, hanuzgacha do‘ppi kiyib yuraman. Toshkentda kimni do‘ppida ko‘rsangiz bilaveringki, ular: yo Orziqul Ergash, Zuhriddin Isomiddinov akalar yoxud men bo‘lamiz. Shu vajdan ba’zilar meni andijonlik deb o‘ylaydi, yana kimdir talaffuzimni eshitib, buxorolikmisiz deb so‘raydi. Ayrimlar ismimni bilgach, xorazmlik bo‘lsangiz kerak, deya taxmin qiluvchilar ham bor. Balki shundanmi, oxirgi she’riy toplamim Xudoybergan Komilov nomi bilan chop etilib ketdi. Biroq men bulardan sira xafa bo‘lmayman. Meni eskichi deb bilsalar ham, ijtimoiy tarmoqlarda, matbuotda ovozimni o‘chirishga harakat qilishgandayam xafa bo‘lmayman. O‘zimni ham, tanqidchilarimni ham “beayb parvardigor” degan falsafa bilan yupatib qo‘ya qolaman. Ammo alifbo masalasida fikrim qat’iy, unga teginish, o‘zgartirishga mutlaqo qarshiman. Nega desangiz, yaqinda internetda ulug‘ shoir Cho‘lponning muborak dastxatini ko‘rib, alamim yana toza bo‘ldi. Avval ham adabiyot muzeyida buyuk adiblarimiz Abdulla Qodiriy va Oybekning arab imlosidagi dastxatlarini ko‘rgandim. Binoyidek chiroyli yozuv. Qolaversa, Imom Buxoriydan to Mahmudxo‘ja Behbudiyhacha barcha ulug‘larimiz o‘zlarining o‘lmas asarlarini shu xatda bitishgan. Qizig‘i shundaki, arab yozuvi naqadar noqulay bo‘lmasin, asrlar davomida xalqimizga beminnat xizmat qildi. Undan foydalanish davomida o‘zbekning birorta tovushi yoki fonemasi o‘zgarmadi, yo‘qolmadi. Aksincha, arab yozuvida bitilgan g‘azallar, asarlarnimg shirasini totgan kishi qayta-qayta tamshanib qo‘yishi aniq. “O‘tkan kunlar”ni mutolaa qilganlar, hatto, keyingi yozuvlarda yo‘qolib ketgan ayrim o‘zbek fonemalarini qayta kashf etishdi. Shu o‘rinda bibim bolaligimda aytib bergan qadimiy rivoyat yodimga tushaveradi.

O‘tgan zamonda bir sohibjamol qiz bo‘lgan ekan. Kunlardan bir kun uni o‘rmondan tushib kelgan ayiq o‘g‘irlab ketibdi. Tog‘dagi g‘origa oborib xotin qilib olibdi. Qizning yaqinlari uni ayiq yeb qo‘ygan bo‘lsa kerak, degan andishaga borib unga aza ham ochishibdi. Bu orada ancha muddat o‘tgach, haqiqatdan xabardor bo‘lgan oriyatkash akalari g‘orni topib borib, payt poylab ayiqni o‘ldirishibdi va singillarini qutqazib qishloqqa obkelishibdi. Bir kuni qarasalar, singillari toqqa qarab yig‘lab o‘tirganmish.

– Nega yig‘layapsan? – deb so‘rashibdi ular.

– Erim yodimga tushib ketdi. Ayiq bo‘lsayam, erim edi, uy-joyim edi, – degan ekan singillari ko‘zyoshini to‘xtatolmay.

Shu ma’noda, noqulay bo‘lsa ham, o‘qish-yozish qiyin bo‘lsa ham, o‘sha eski o‘zbek alifbomiz biz uchun asriy qadriyatlarimiz xazinasi edi. Afsuski, undan ajralganimiz millatimiz uchun qanaqa katta yo‘qotish bo‘lgani endi-endi bilinyapti. Kelinglar, o‘sha tarixiy xatolarimizni qayta takrorlamaylik, ulug‘ istiqlolimizdan nishona bo‘lib qolgan yangi alifbomizni daxlsiz saqlaylik. Shulardan kelib chiqib, aytib o‘tish lozimki, ayrim ustozlarimizning agar alohida harf bilan ifodalanmasa, “ng” tovushi yo‘qolib ketishi mumkinligi haqidagi fikrlari anchayin ishonchsiz. To‘g‘ri, uni qanaqadir shoxli yoki dumli N bilan yozish mumkindir, ammo o‘sha harfni kompyuterda terish uchun klaviaturasiga yangi belgi qo‘yib chiqishga to‘g‘ri keladi va bu foydalanuvchilarga yana yangi muammolarni paydo qiladi. Mening fikrimcha, 1995-yilgi alifbo islohoti o‘rinli bo‘lgan va uni qayta o‘zgartirishning hojati yo‘q deb o‘ylayman. Nima bo‘lgandayam, u bolalarimizning savodini chiqargan o‘ttiz yillik imlomiz ekanligini zinhor unutmaylik.

## SALTANATLAR SILSILASI

Keyingi davrda imperiyalarning tanazzulga yuz tutishi sabablari haqida ko‘plab tadqiqotlar va nazariyalar hamda jamiyatshunos olimlarning fikr-mulohazaralarini o‘qishingiz mumkin. Ularning birida saltanatdagi ichki muammolarning ko‘payib borishi asosiy omil sifatida aytilsa, ikkinchisida imperiya elitasi orasidagi aynish jarayoni bosh sabab deya ko‘riladi. Yana birida esa milliy-ozodlik harakati bosh sababchi qilib ko‘rsatiladi. Bu borada ham mening qarashlarim juda konservativ bo‘lib, imperiyalarni dunyo xalqlari uchun anchayin foydali tuzilma deb bilaman.

Xalqimizda: “Birlashgan o‘zar...” degan juda ibratli naql bor. Ma’lum bir ezgu maqsad yo‘lida xalqlar va mamlakatlar birlashib harakat qilsa, buning nimasi yomon?! Shu ma’noda, qadimiy Rim imperiyasidan tortib, biz – keksalar tug‘ilib yashab ko‘rgan qizil imperiyagacha – barchasida qanaqadir odamlarni o‘ziga tortib birlashtiruvchi jihatlar bo‘lgani ayon haqiqat. Aytaylik, sohibqiron Temur saltanatinimg jozibasi adolatparvarligida edi. Yevropa imperiyalari ham o‘z tasarrufidagi mustamlakalariga zulm va zo‘ravonliklar bilan birga taraqqiyot va madaniyat olib borganligi ham ma’lum. Shu ma’noda, shoirlarimiz Furqat, Anbar otin, Hamza Hakimzodaga shubhali yorliqlarni ilish durust emas. Ular taraqqiyotni, yangi zamonni madh etishgandi, xolos. Oktabr inqilobidan keyin yetishib chiqqan ziyolilarimiz ham sho‘ro imperiyasining maddohlari deya nomlanishi mutlaqo noto‘g‘ri. Umuman, tanqidchilarning o‘zi yashab ko‘rmagan zamon va unung odamlari haqida hukm chiqarishlari unchalik durust emas deb o‘ylayman. Aytaylik, o‘sha davrda yashab ijod qilgan adiblarimizni tili va dili boshqa munofiq odamlar bo‘lgan, degan qarashlarga mutlaqo qarshiman. Ular jahonshumul inqiloblar va islohotlar davrida yashadilar. Qanchalik ajablanarli tuyulmasin, qizil imperiyaning ham xalq e’tiborini o‘ziga tortuvchi jozibali jihatlari bor edi. Masalan, kommunistik mafkura oldinga surgan tenglik, tinchlik, do‘stlik, kambag‘alparvarlik taomillari, soxta bo‘lsa-da, adolat va haqiqatparvarligi hozirgi davrda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmayapti. Shu ma’noda qay bir yirik saltanat bo‘lmasin, o‘zining markazga tortuvchi kuchi bo‘lmasa, muqarrar halokatga mahkum bo‘ladi. Shu bois, har bir imperiyaning kuchli milliy g‘oyasi bo‘lishi shart. Aks holda, uning qudrati yildan yilga sinib, so‘nib boraveradi. Biz bugungi kunda ushbu holatni tobora yemirilib borayotgan rus imperiyasi misolida ko‘rib turibmiz. Ma’lumki, Rossiya asrlar davomida qo‘shni xalqlar va hududlarni zo‘ravonlik bilan egallab olish hisobiga kengayib borgan yirik saltanat hisoblanadi. Tarixan ko‘pmillatli bo‘lgan bu mamlakatda hozirgi davrda tayinli milliy g‘oya mavjud emas. Kundan kunga odamlar miyasiga singdirayotgan “rus dunyosi” haqidagi shovinistik ko‘zqarashlar ko‘pmillatli, ko‘pdinli jamiyatlar uchun hech qachon milliy g‘oya bo‘la olmaydi. Shu ma’noda, kommunistik mafkura Rossiya jamiyati uchun birdan bir uyushtiruvchi kuch bo‘lganligi tobora ayon bo‘lib bormoqda. Kommunistik Xitoy haqida ham xuddi shunday fikrni aytish mumkin. Ular aqlli ish tutib, chuqur iqtisodiy islohotlar davrida ham kommunistik jilovni bo‘shatishmadi. Aksincha, siyosiy-ijtimoiy nazorat yildan yilga kuchayib bormoqda. Endi bu holatning qanaqa oqibatlarga olib borishi alohida o‘rganiladigan mavzu. Nima bo‘lganda ham, u yoki bu mamlakat elitasi davr talabiga hozirjavoblik bilan harakat qilmas ekan, mamlakatni muqarrar tanazzul kutadi. Davlatni allaqanday milliy, irqiy, diniy, tarixiy yoki siyosiy afsonalarga tayanib boshqarish qanaqa ayanchli oqibatlarga olib borishini biz bugungi kunlarda o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rib turibmiz.

## G‘ALATI VAZIRLIK

Haqli ravishda dunyo mamlakatlari lideri deya tan olingan AQSH ham keyingi yillarda o‘zining asrlar davomida sinovdan o‘tib kelayotgan milliy g‘oyasidan tobora chekinib bormoqda. Amerikaliklarning “ozodlik, din, oila, xususiy mulk” degan to‘rt muqaddas taomillari shubha ostiga olinmoqda. Mamlakat ortiq demokratiya namunasi bo‘lishdan, dunyoda tartib o‘rnatuvchi mirshablik vazifasidan chekinib, o‘z qobig‘i ichida o‘ralashib qolmoqda. Bu jarayonning jahon ayvonida yangi liderlar paydo bo‘lishi bilan bir vaqtda kechayotgani imperiya uchun yangi xatarlarni paydo qilmoqda. Ayniqsa, Donald Tramp hokimiyat tepasiga kelganidan keyin mamlakatning siyosiy-ijtimoiy qiyofasi anchayin o‘zgarib ketdi. Yangi prezidentning ayrim gaplari, qiliqlari ba’zan bir-biriga tamoman zid keladi.

Masalan, Tinchlik bo‘yicha Nobel mukofotiga da’vogarlik qilib kelayotgan Tramp mamlakat mudofaa vazirligini “Urush vazirligi” deya qayta nomladi. Yoki bo‘lmasa u tish-tirnog‘i bilan “yashil” energetikaga qarshi. Bir paytlar koronavirus pandemiyasini demokratlar o‘ylab topgan safsata deb atagani ham tarixiy fakt. U o‘z shaxsiyatini markazga olib chiqish uchun eng zolim mustabid diktatorlar bilan ham kelishuvga tayyor. Demokratik partiyani Amerikaning birinchi raqamli dushmani deb e’lon qildi. Uning nazarida global iqlim isishi ham olimlar tomonidan o‘ylab topilgan yolg‘on emish. Xullas, uning turli masalalarda aytgan fikrlarini eshitib faqat hayron bo‘lish mumkin, xolos. Dunyoning eng yirik davlatlari boshiga bunaqa chalasavod, yolg‘onchi rahbarlarning chiqib olishining o‘zida allaqanday nomutanosiblik borligini sezib olish qiyin emas. Bularning barisi insoniyat ming-ming yillardan buyon to‘plagan tarixiy-siyosiy-ijtimoiy tajribalar unutilib borayotganidan dalolat bermoqda. Bu holat bugungi kunlarda urush va tinchlik masalasida yaqqol ko‘rinmoqda. Oqibatda, jahondagi ayrim xalqlar boshiga behisob kulfat va azob-uqubatlar yog‘ilmoqda. Odamlarda ruhiy-ma’naviy muvozanat buzilib bormoqda. Yaqinda asirga tushib qolgan rossiyalik bir askarning onasi bilan telefon orqali bo‘lib o‘tgan suhbatini eshitib yoqa ushladim. Ona bolasining asirlikda tirik va sog‘-omon ekanligini bilib suyunmayapti.

“Sen mening o‘g‘lim emassan, mening o‘g‘lim o‘lgan, sendan qoraxat kelgan, biz sening kafanlik pulingni olib ishlatib yuborganmiz. Sening tirikligingni bilsalar, bizdan pulni qaytarib olib qo‘yishadi”, deyapti ona. Bir paytlar Ikkinchi jahon urushidan keyin ulug‘ shoiramiz Zulfiya: “Ona qalbi oyoqqa tursa, o‘g‘lim, sira bo‘lmaydi urush!” deya yozgan edi. Rossiyalik ona-bola suhbatini tinglab turib, urush vazirligining paydo bo‘lganiga sira ajablanmay qo‘ydim

Ko‘rinib turibdiki, odamlar boshiga turli-turli g‘am-kulfatlarning yog‘ilishiga u yoki bu masalada yuzaki bilimga ega bo‘lgan vakolatli shaxslar sabab bo‘lmoqda ekan. Aytaylik, tabiiy fanlarda Tramp anchayin oqsoq, Putin esa aniq fanlarni “3” baho bilan o‘qigan. Mavzuni yaxshi bilmaslik oxir-oqibat katta xatoliklarni keltirib chiqaradi. Yirik odamlarning xatosi ham yirik bo‘lishi tabiiy.

Maqolani alifbo islohoti haqidagi gaplar bilan boshlagandim. Shu masalani chuqurroq o‘rganib chiqish davomida qiziq faktlarga duch keldim. Imloni lotinlashtirish g‘oyasi, aslida, Vladimir Leninning ko‘rsatmasi bilan boshlangan ekan. Maqsad butun dunyo proletarlarini bir alifbo atrofida birlashtirish bo‘lgan ekan. O‘shanda, hatto rus alfavitini ham lotinchaga o‘zgartirish ko‘zda tutilgan. 1926-yilda SSSR turkologlarining Bokuda bo‘lib o‘tgan anjumanida barcha musulmon respublikalar arab yozuvidan voz kechib, “yanalif”, ya’ni lotin yozuviga o‘tishga qaror qilishgan. Ammo, negadir, 70 dan ziyod millat va elatni yangi imloga o‘tkazib, ruslar o‘z yozuvini saqlab qolgan va keyinchalik ularning hammasiga kirill alifbosini joriy etgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, rus shovinistlari turli vositalarni ishga solib, xalqlarni tilidan, dinidan, tarixidan va ming yillik madaniyatidan uzoqlashtirishga harakat qilishgan va bunga qaysidir ma’noda erishganlar.

*Rasulov Hakim Mamanovichning 23.00.03 – Siyosiy madaniyat va mafkura ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston milliy taraqqiyotining hozirgi bosqichida siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash masalalari" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24;
veb-sayt: www.nuu.uz; e-xat: nuu@exat.uz; e-mail: devonxona@nuu.uz

*Axmedova Anorxon Nasibali qizining 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Talabalarning yozma tarjima ko'nikmasini korpus vositasi yordamida takomillashtirishning didaktik asoslari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi,
G-9 "A" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-xat: uzgumya1@exat.uz; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz

*Toshev Suhrob Mirzaqulovichning 09.00.04 – Ijtimoiy falsafa ixtisosligi bo'yicha "Yoshlarga xavf solayotgan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar va ulardan himoyalanish omillari" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.F.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 19-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24;
veb-sayt: www.nuu.uz; e-xat: nuu@exat.uz; e-mail: devonxona@nuu.uz

*Isoqov Saydulla Sobirjonovichning 22.00.02 – Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi ixtisosligi bo'yicha "Oila va ta'lim tizimi orqali yoshlarda sotsial mobillik samaradorligini oshirish mexanizmlari" mavzusidagi(falsafa fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.29/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (78) 150-14-54; e-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com

*Xaydarova Ra'no Anvarovnaning 13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika ixtisosligi bo'yicha "Sharq tillari filologiya ta'lim yo'nalishi talaba-qizlarining vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.29/2025.27.12. Ped.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (78) 150-14-54; e-mail: mvaoiti@exat.uz, mvaoiti@gmail.com

*Nomozova O'g'iloy Akmaljon qizining 13.00.09 – Ijtimoiy pedagogika ixtisosligi bo'yicha "Oila farovonligini ta'minlashda er va xotin muloqot madaniyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Oila va gender ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.29/2025.27.12. Ped/01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Chilonzor ko'chasi, 25-uy.
Tel/faks: (78) 150-14-54; e-xat: mvaoiti@exat.uz; e-mail: mvaoiti@gmail.com

*Teshayeva Dilbar Shuxrat qizining 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Katta so'lak bezlarining sifat tarkibi turlicha bo'lgan ichimlik suvlari ta'siridagi morfofunksional o'zgarishlarning o'ziga xosligi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200126, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, (95) 911-00-50;
e-mail: info@bsmi.uz, buxme1990@mail.ru

*Fayzullayeva Nilufar Avazovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Perimenopauza davridagi ayollarda adenomiozning natijalari va asoratlarini bashorat qilish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-avgust kuni soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: sammu@sammu.uz

*Elmuradov Akbar Muhammadiyevichning 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "Turkiston jadidlari siyosiy partiya va tashkilotlarining muxtoriyat hamda mustaqillikka oid konsepsiyalari siyosiy tahlili" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-02-24;
veb-sayt: www.nuu.uz; e-xat: nuu@exat.uz; e-mail: devonxona@nuu.uz

*Nurtdinova Saodat G'aybullayevnaning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Improving the technology of applying differentiated instruction in teaching English to philology students" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01. Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "A" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-xat: uzgumya1@exat.uz; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz

*Saidov Ravshan Tursunovichning 13.00.02 – Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili) ixtisosligi bo'yicha "Filolog talabalarning o'qish kompetensiyasini ingliz tilidagi badiiy matnlar asosida takomillashtirish" mavzusidagi(pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Ped.45.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi, G-9 "A" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-xat: uzgumya1@exat.uz; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz

*Fatilloyev Sardorbek Zokirovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Gelioissiqxonalarning quyosh-issiqlik quvurli isitish tizimining parametrlarini asoslash" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 13-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

*Fozilov Mirvoxid Mirsultonovichning 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik ixtisosligi bo'yicha "E.S.Tompson asarlari tarjimalarida zoonimlarning verbalizatsiyalashuvi (ingliz, o'zbek va rus tillaridagi materiallar asosida)" mavzusidagi(filologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.31.01.Fil.45.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 17-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100173, Toshkent shahri, Kichik halqa yo'li ko'chasi,
G-9 "A" mavzesi, 21-uy.
Tel/faks: (71) 230-12-91; e-xat: uzgumya1@exat.uz; e-mail: uzdjtu@uzswlu.uz

*Musurmankulova Shaxlo Axmedovnaning 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha "Geoaxborot texnologiyalari asosida murakkab relyefli qishloq xo'jaligi yerlarida nishablikni baholash va yer tuzish usullarini takomillashtirish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Muxtarova Mohinur Sultonovnaning 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha "Raqamli texnologiyalar yordamida fermer xo'jaliklari yerlaridan foydalanishni tashkil etish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Yo'ldoshov Abdulaziz Abdumalik o'g'lining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "No'xat hosildorligi va donining sifat ko'rsatkichlariga gerbitsid hamda biostimulyatorlarning ta'siri" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.|2.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Xamdamova Barno Tajidin qizining 06.01.05 – Seleksiya va urug'chilik ixtisosligi bo'yicha "Tritikale seleksiyasi uchun boshlang'ich manbalar yaratish, kolleksion nav namunalaridan tanlash va joriy etish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 20-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Xolmaxmatov Azim Xazratkulovichning 23.00.02 – Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar ixtisosligi bo'yicha "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati yo'nalishlari va tuzilmasining evolyutsion dinamikasi" mavzusidagi(siyosiy fanlar bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.Ss.01.09 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-avgust kuni soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100192, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel.: (99871) 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz



# Qo‘ng‘iroq chalinguncha

## CHALA QOLGAN ERTAK

Hayotiy voqea

To‘rt-besh yoshli bolalar juda sersavol bo‘ladi-da. Nurmat ham shundaylardan. Ismatboy oilasi bilan yaqin qarindoshining tug‘ilgan kuniga borayotgani uchun Nurmatni sakson yoshli bobosiga qoldirdi.

– Mayli, o‘g‘lim, bir o‘zim zerikib o‘tirgan edim, – dedi Eshmat bobo nevarasini bag‘riga bosarkan, – qudalarga salom aytinglar, xo‘pmi?!

– Xayr, otajon, biz sal kechroq qaytamiz.

O‘g‘li va kelini yo‘lga ravona bo‘lgach, Eshmat bobo nevarasining oldiga mayiz, yong‘oq va shirinliklar qo‘ydi.

– Bobo, menga qiziq ertaklaringizdan aytib bering.

– Mayli, bolam, quloq sol bo‘lmasa. Bir bor ekan, bir yo‘q ekan. Bir oilada ota-ona va bir o‘g‘il yashashar ekan. Oyisi har kecha bolasiga alla aytib berar ekan.

– Bobo, nega onalar alla aytishadi?

– Alla eshitgan bolalar ziyrak, aqlli, odobli bo‘lishadi. Milliy qo‘shiqlarga havas, qalbida mehr uyg‘onadi.

– Unda nega oyim menga alla aytib bermaydi?

– Endi alla eshitib ulg‘aymagan odam alla aytolmaydi-da. Ertakning davomini eshit, bolam.

– Dadamga ertak aytib bering, desam, “men birorta kitob o‘qimaganman, ertak bilmayman” deb oyim bilan ikkovlari faqat telefon ko‘rib o‘tiraveradi. Men esa ular bilan gaplashgim keladi. Ular meni yomon ko‘rishadimi?

– Nega endi, hamma ota-onalar farzandini yaxshi ko‘radi. Endi ertakning davomiga quloq sol: bir kuni dadasi oyisining tug‘ilgan kunida ro‘mol sovg‘a qilibdi.

– Ro‘mol degani nima o‘zi?

– Bir vaqtlar qiz-u ayollar boshlariga boylab yuradigan chiroyli mato edi. Shamoldan, sovuqdan, issiqdan saqlardi, xotin-qizlar ko‘p kasal bo‘lishmas edi. Eng asosiysi, ro‘mol muslima ayollarimizning sharm-u hayosi, odobini belgiluvchi, begona ko‘zlardan asrovchi bir vosita edi.

– Bobo, dadam unning narxi oshibdi, dedi. Endi nima bo‘ladi?

– Olloh tish beribdimi, rizqini ham beradi, bolam. U “sendan harakat, mendan barakat” degan.

– Bobo, rizqimizni Olloh bersa, dadam va oyim telefondan boshini ko‘tarmasa, ertak aytib bermasa, odamday gaplashib o‘tirolmasak, oyi bilan dada nimaga kerak o‘zi? Men juda zerikyapman. Uyda mushugimiz bolalagan. Har kuni onasi bilan o‘ynaydi. Onasi ham bolalarini yaxshi ko‘rib erkalaydi. Ularga havasim keladi.

Shu payt to‘satdan chiroq o‘chib qoldi.

– Bo‘ldi, bolam, ko‘zingni yum, chiroq yonsa ertakning davomini aytib beraman.

Birozdan so‘ng Nurmat pishillab uxlab qoldi.

Eshmat bobo “Yo Olloh, gunohkor bandalaringni o‘zing kechir. Ota-onalarga insof ber. Bolalarimiz qalbiga mehr-oqibat urug‘larini sochgin”, deya ohista yostiqqa bosh qo‘ydi, ammo uyqusi kelmadi. Chunki uning yuragini chala qolgan ertak emas, bugungi oilalarning, mehrsiz qolayotgan bolalarning taqdiri tirnar edi…

Po‘lat MANSUR,
faxriy o‘qituvchi

Tafakkur gulshani

## IKIR-FIKRLAR

***Murakkab vaziyatlardan chiqib ketish uchun chiqish yo‘llari oldindan o‘ylab qo‘yilgan bo‘lishi lozim.***

* * *

*“Meditsina – xotinim, adabiyot – o‘ynashim”, degan ekan Chexov. O‘zimcha, o‘zimga mosladim: pedagogika – xotinim, adabiyot – o‘ynashim, jurnalistika – do‘stim.*

* * *

***Haqiqatga yaqin – haqqa yaqin.***

* * *

*Bilimsiz odamlarning murakkab masalalar ustida bahs yuritishlari kishida kulgi va achinish aralash istehzo paydo qiladi.*

* * *

***Hozir mening qalamim ham, qog‘ozim ham telefon bo‘lib qoldi. Shu yerda yozaman, tahrir qilaman, chop etaman. Kitobxonlarim ham, taqrizchilarim ham shu yerda o‘qiydilar, fikr bildiradilar, maqtaydilar, tanqid qiladilar.***

* * *

*Pastdagilar yuqoridagilardan ustun kelsa, zamon to‘nkariladi.*

* * *

***Qalamkashning vazifasi bitta – ezgulikni original yo‘l bilan chiroyli targ‘ib qilish.***

* * *

*Murakkab kompyuterlar oddiy fizik qonuniyatlar asosida ishlaganidek, mukammallik asosi ham oddiylikdir.*

* * *

***Hunar va bilim – tuganmas davlat.***

* * *

*Begonalar oldida qilingan nasihat – haqorat.*

## QOVOG‘ARI – QOVOQ ARI

Bir zamonlar bari ari,
Uchar ekan maktab sari.
Mahalladan ancha nari,
Gulzor ekan maktablari.
Maqsadlari: olib ilm,
Ko‘paytirar ekan bilim.
Keyin ishni do‘ndirarkan,
Changdan shira undirarkan.
Erta-yu kech qilib g‘ayrat,
Yaratarkan noz-u ne’mat.
Dasturxonni bezar ekan,
Guldan asal yasar ekan.
Uni ko‘rib yosh-u qari,
Deyisharkan: Asalari.
Biroq bunda ba’zi ari,
Yalqov ekan ba’zilari.
O‘qishga mehr qo‘ymas ekan,
Shira yalab to‘ymas ekan.
Bol yasasa Asalari,
O‘g‘irlarkan ular bari.
Yeganlari asal ekan,
Shundan ko‘pi kasal ekan.
Yashar ekan g‘ayrat qilmay,
Oshar ekan mehnat qilmay.
Hech bir ishni bilmas ekan,
Ham o‘qishni bilmas ekan.
Boshi go‘yo qovoq ekan,
O‘qish-ishda qoloq ekan.
Buni ko‘rgan borki bari
Derkan: bular qovoq ari.
O‘sha-o‘sha qoloq ari,
Bo‘b qolibdi: Qovog‘ari.



Xudoyberdi KOMILOV



## ISSIQLIK IBODATDIR

Ishyoqmasvoy issiqdan inqillaganchа Ishchanbekning imoratiga intildi. Ishchanbek imorat ichkarisida ixlos ila ishlayotganligini ilg‘adi. Ishlayotgan-ishlamayotganligiga ishonib-ishonmay:

**Ishyoqmasvoy** (ikkilanib):

– Ibi, issiqda ishlayapsanmi? Issiqda-ya?!

**Ishchanbek** (ildam):

– Issiqda ishlayapman! Iqlimning injiqliklariga inson ilmi itoatgo‘y emas.

**Ishyoqmasvoy** (iljayib):

– Ilmlisan-da, ilmli. Ishonasanmi, ichimliklardan ichaverib, ivigandan ividim.

**Ishchanbek** (inontirib)…

– Issiqlik iskanjasi ibratomuz imtihon. Ittifoqo, iqlimning ijozati ila issiqlik – ibodat. Inshoolloh!

Ishchanbekning imo-ishorasiz ilhombaxsh iltifotini ilg‘agan Ishyoqmasvoy ishonib-ishonmay indamadi.

Hakim KAMOLOV.
faxriy o‘qituvchisi

## MUALLIM

“Maktab”, “o‘qituvchi”, “ta’lim-tarbiya”,
So‘zlar zamirida kelajak ayon.
Ilm ummoniga yo‘qdir nihoya,
Ta’zimda ustozga jumlayi jahon.

Elning farzandini “o‘g‘il-qizim” der,
Suyib-erkalaydi, boshin silaydi.
“Ustoz” deb talpinsa o‘quvchilari,
Charchoqni unutib, ko‘zi quvnaydi.

Shogirdlar siylasa, “ustozim” deya,
Uning-chun shu erur, eng zo‘r iltifot.
E’tirof ham shudir, e’zoz ham shudir,
Shogirdlar yutug‘i – oliy mukofot.

Feruza OLLABERGANOVA,
Ellikqa’la tumanidagi
16-maktab o‘qituvchisi

*Navruzova Rano Sadikovnaning 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosligi bo'yicha "Preeklampsiyaning oldini olish va prognoz qilishda angiogen oqsillarning ahamiyati" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: info@tashmeduni.uz, google@tashmeduni.uz

*Gulomov Furkat Kayyumovichning 14.00.27 – Xirurgiya ixtisosligi bo'yicha "Asoratlangan o't-tosh kasalligida jigardan tashqari o't yo'llari shikastlanishlarini jarrohlik yo'li bilan davolashning kompleks tizimi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Tyan Tatyana Valeriyevnaning 14.00.33 – Jamiyat salomatligi, sog'liqni saqlashda menejment hamda 14.00.01 – Akusherlik va ginekologiya ixtisosliklari bo'yicha "COVID-19 pandemiyasi davrida akusherlik va ginekologik yordamni tashkil etishda multidistiplinar yondashuvlar" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 24-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100140, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: info@tashmeduni.uz, google@tashmeduni.uz

*To'xliyev Mansur Maxmudovichning 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Past potensialli quyosh quritish qurilmasining energiya samaradorligini oshirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.28.11.T.17.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 11-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

*Alimaxamatova Shaxnoza Orifjonovnaning 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha "Qishloq xo'jaligi yerlarini shamol eroziyasidan himoya qilishda yer tuzishni loyihalash usulini takomillashtirish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Xolmatjonov Shaxbozbek Fayoziddin o'g'lining 06.01.10 – Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi ixtisosligi bo'yicha "Qishloq xo'jaligi yerlarini ajratishda raqamli loyihalar ishlab chiqish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2026-yil 28-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent shahri, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Xakimov Qaxramon Qodirovichning 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar (texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Kompozit profillar qo'llanilishi orqali faxverk tizimlarining konstruktiv samaradorligini oshirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.09.01.T.02.M raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 3-sentabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100194, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 9-uy.
Tel/faks: (55) 508-02-95; email: devon@taqu.uz

*Jurayeva Kamola Stanislavovnaning 14.00.10 – Yuqumli kasalliklar ixtisosligi bo'yicha "Fertil yoshdagi ayollarda brutsellyoz kasalligining ayrim klinik va immunologik jihatlari" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.17.04 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: sammu@sammu.uz

*Ergashova Dilnara Tolibayevnaning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik(texnika fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Qishloq xo'jalik ekinlarini tomchilatib sug'orishda magnitlangan suvdan foydalanishning samaradorligi(Toshkent viloyati misolida)" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.17/2025.27.12.T.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 28-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100187, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Qorasuv-4 mavzesi, 11-uy.
Tel/faks: (99) 434-43-28; e-mail: ismiti@minwater.uz

*Adhamova Laziza Abror qizining 14.00.08 – Oftalmologiya ixtisosligi bo'yicha "Markaziy seroz xorioretinopatiyani kompleks davolashda mikroimpuls lazer ta'sirining samaradorligini klinik va funksional asoslash" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Samarqand davlat tibbiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 06/2025.27.12.Tib.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 22-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 140100, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, 18-uy.
Tel/faks: (66) 233-30-34; e-mail: sammu@sammu.uz

*Yusupov Adhambek Ulug'bekovichning 14.00.13 – Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Ishemik insultdan keyingi motor afaziyali bemorlarni kompleks davolashda transkranial magnitli stimulyatsiyaning samaradorligini o'rganish" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhme@mail.ru

*Sobirov Feruz Choriyevichning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Irrigatsiya kanallaridagi o'zan deformatsiyasini tadqiq qilish(Amu-Buxoro mashina kanali misolida)" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

*Xo'shiyev Shuhrat Panjiyevichningning 05.09.07 – Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Naporli quvurlarida gidravlik zarba va uning so'ndirgichi hisobini takomillashtirish" mavzusidagi(texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.T.17.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 14-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik shohko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 221-09-23, 224-13-95; e-mail: kstu@kstu.uz

*Ashurova Nodira Gafurovnaning 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo'yicha "Giperglikemiyaninng turli toifalarida medikamentoz va nomedikamentoz profilaktikasini qiyosiy baholash" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Kodirkulov Azizjon Saidkul o'g'lining 19.00.05 – Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasi ichki ishlar organlari xodimlarining kontrproduktiv xatti-harakatlari profilaktikasining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlarini takomillashtirish" mavzusidagi(psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2026.10.04.P.01.18 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 27-avgust kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 4-uy.
Tel/faks: (71) 246-67-72; e-mail: nauka@nuuz.uz

*Tursunova Muxlisa Kamol qizining 06.01.08 – O'simlikshunoslik ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy no'xat navlarining o'sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga turli ekish muddatlari va tizimlarining ta'siri (Qashqadaryo viloyati tog'oldi lalmikor yerlari misolida)" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.02.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111218, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Tel/faks: (71) 260-48-00, 260-38-60;
veb-sayt: www.tdau.uz; e-xat: tdau@exat.uz; e-mail: tuag_info@edu.uz

*Boboyev Shuhrat Raximovichning 14.00.02 – Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Tajribaviy oshqozon-ichak traktining sirka kislotasi bilan kimyoviy kuyishida yo'g'on ichak devoridagi morfologik o'zgarishlarning qiyosiy tavsifi"(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 26-avgust kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhme@mail.ru

*Ruziyeva Gavhar Toxirovnaning 14.00.21 – Stomatologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalar tish qatorlari okklyuzion sathidagi o'zgarishlarida tish-jag' tizimidagi morfofunksional buzilishlar va ularning davo-profilaktikasi" mavzusidagi(tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/2025.27.12.Tib.05.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 21-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 200118, Buxoro shahri, G'ijduvon shohko'chasi, 23-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

*Xamrayev Shavkat Raximovichning 06.01.02 – Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Iqlim o'zgarishi sharoitida suvni tejaydigan sug'orish texnologiyalarini qo'llashning ilmiy va amaliy asoslari" mavzusidagi(qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) doktori(DSc) dissertatsiyasining himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.08/2025.27.12.Qx.01.01 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 25-avgust kuni soat 09:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.*

Manzil: 111202 Toshkent viloyati Qibray tumani,
Botanika MFY, VIR Botanika ko'chasi, PSUYEAITI.
Tel.: (78)-150-62-84; veb-sayt: www.psuyaiti.uz; e-mail: paxtauz@mail.ru

Tuhfa

# “NUROBODNING SHONLI YO‘LI”

Nurobod – Samarqand viloyatining yirik tumanlaridan biri. Tog‘lari, xushmanzara bog‘lari, keng yaylovlari, eng muhimi, qalbi yaylovlaridan-da ulkan insonlari bilan mashhur. Qadim Samarqandning biqinidan boshlanib, janubga yo‘nalgan karvon yo‘li ustida joylashgan Nurobodning har qarich tuprog‘i uzoq o‘tmishdan hikoya qiladi. Bu zamin ko‘plab ijodkorlar, olimlar, ziyolilar va el-yurt xizmatiga kamarbasta insonlarni voyaga yetkazgan.

2025-yili Nurobod tumani tashkil topganiga 50 yil to‘ldi. O‘tgan asrning 70-yillari Samarqand viloyatining tog‘ va dasht hududlaridagi chorvachilik hamda g‘allachilikka ixtisoslashgan xo‘jaliklarni yagona hududga birlashtirish maqsadida Kattaqo‘rg‘on, Pastdarg‘om, Narpay va Paxtachi tumanlaridan ajratilgan yer maydonlari negizida 1975-yil 26-noyabrda Nurobod tumani tashkil etilgan.

Yaqinda “Hilol Media” nashriyoti tomonidan O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi hamda Nurobod tumani tashkil topganining 50 yilligiga bag‘ishlab nashr etilgan “Nurobodning shonli yo‘li” nomli kitob qo‘limga tushdi. Doniyor Xushvaqtov, Abdumajid Jo‘rayev, Suyun Karimov va G‘ofur Eshmonov hammualliflig‌ida tayyorlangan ushbu salmoqli nashrni varaqlar ekanman, dastlabki taassurotim shunday bo‘ldi: bu oddiygina yubiley munosabati bilan shosha-pisha tayyorlangan, qo‘l




uchida yozilgan kitob emas. Mutolaa qilgan sari uning Nurobod tarixi, buguni va taraqqiyot yo‘lini keng ko‘lamda yoritishga qaratilgan jiddiy tadqiqot ekaniga amin bo‘ldim.

Kitobning eng muhim jihatlaridan biri shundaki, unda tuman hayotining deyarli barcha qirralari qamrab olingan. Bo‘limlar shaklida tuman tarixi, geografiyasi va tabiati, hududdagi muqaddas qadamjolar, tarixiy maskanlar haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Nurobod tumanining tashkil topish tarixi, shu kungacha tumanga rahbarlik qilgan rahbarlar, uning rivojiga munosib hissa qo‘shgan fidoyi insonlar faoliyati ham alohida yoritilgan.

Shuningdek, tumandagi xo‘jaliklarning tashkil topishi, faoliyati va rivojlanish bosqichlari, boshqaruv tizimi, turli tashkilot, muassasa va idoralarning tarixi hamda bugungi faoliyati haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Shu jihatdan kitobni nafaqat tarixiy manba, balki bugungi Nurobodning o‘ziga xos ensiklopediyasi deyish ham mumkin.

Kitobning yana bir e’tiborga molik jihati – unda tumandagi har bir mahalla fuqarolar yig‘iniga alohida e’tibor qaratilganidir. Har bir mahallaning tarixidan tortib, bugungi qiyofasi, aholisi, shu zaminda yashab, mehnat qilgan insonlar, amalga oshirilayotgan ishlar va hududning o‘ziga xos jihatlarigacha batafsil ma’lumot berilgan. Bu esa kelajak avlod uchun nihoyatda qimmatli ma’naviy va tarixiy merosdir.

“Nurobodning shonli yo‘li”da Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, olim, ijodkor, ziyoli va yurt fidoyilari, davlat mukofotlariga sazovor bo‘lgan va tuman taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan taniqli nurobodliklar haqida ham ma’lumotlar jamlangan.

Kitob faqatgina Nurobodning o‘tmishiga murojaat qilib qolmaydi. Unda tumanning bugungi qiyofasiga ham keng ko‘lamda nazar tashlangan. Hududdagi yangilanish va bunyodkorlik ishlari, sanoat, chorvachilik, tadbirkorlik, aholiga xizmat ko‘rsatish sohalaridagi o‘zgarishlar, iqtisodiy ko‘rsatkichlar, eksport salohiyati, iqtisodiy imkoniyatlar kabi masalalar ham o‘z aksini topgan.

Shuningdek, tumanning demografik holati, aholi bandligi, daromadlari va ijtimoiy hayotiga oid ma’lumotlar ham kitob mazmunini yanada boyitgan. Kitob Nurobodning kechagi kunini eslash bilan cheklanmay, uning bugungi taraqqiyotini ko‘rsatadi va kelajak imkoniyatlari haqida ham tasavvur uyg‘otadi.

Bunday kitobni qo‘liga olgan har bir inson o‘zi yashayotgan tuman haqida ana shunday mukammal va salmoqli kitob yaratilishini istashi, bu borada nurobodliklarga havas qilishi tayin. “Nurobodning shonli yo‘li”ni oddiy kitob deb baholash kamlik qiladi. U bir tumanning yarim asrlik tarixini, uning odamlari, mahallalari, mehnati, yutuqlari, buguni va istiqbolini bir butun holda aks ettirgan keng ko‘lamli tadqiqot. Shu bois mazkur asarni yaratishdek mashaqqatli va mas’uliyatli ishni zimmasiga olgan mualliflarning mehnatiga tahsin aytmasdan iloj yo‘q. Bunday kitobni tayyorlash uchun nafaqat ko‘p ma’lumot to‘plash, balki ularni izlash, o‘rganish, saralash, tekshirish va yagona tarixiy manzara sifatida jamlash talab etiladi. Mualliflar jamoasining zahmati ana shu jihatdan alohida e’tirofga loyiq.

“Nurobodning shonli yo‘li” kitobi O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi hamda Nurobod tumani tashkil topganining 50 yillik to‘yiga munosib tuhfa bo‘libdi. Aziz nurobodliklar, tumaningizning 50 yillik yubileyi va shunday muhtasham kitobning yaralgani bilan qutlaymiz!

**Humoyun QUVONDIQOV**



Ma'rifat

TA’SIS ETUVCHILAR:
O‘zbekiston maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi,
O‘zbekiston oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,
O‘zbekiston ta’lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

**Bosh muharrir:** Husan NISHONOV

Gazeta O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Indeks: 149 150. V-6173. Tiraji 6545.

Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan.
Qog‘oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:
Tel/faks: (55) 512-01-50

ISSN 2010-6416

“Ma’rifat”dan materiallarni ko‘chirib bosish tahririyat ruxsati bilan amalga oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Mobil ilovani yuklab olish uchun ushbu QR-kodni skanerlang:

(t) – tijorat belgisi.

**Dizayner:** Malohat Toshova.
**Navbatchi muharrir:** Faxriddin Rahimov.
**Navbatchi:** Bobomurod Xudoyberdiyev.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

**MANZILIMIZ:**
100099, Toshkent shahri, Darvozakent ko‘chasi, 60-uy.
Veb-sayt: www.marifat.uz

“O‘zbekiston” nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
**Korxona manzili:** Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko‘chasi, 30-uy.